

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
TA`LIM VAZIRLIGI**

**MUQIMIY NOMIDAGI QO`QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BOSHLANG`ICH TA`LIM KAFEDRASI

**5111700 – Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim fakulteti
boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish ta`lim
yo`nalishi 401- guruh talabasi
SULTONOVA JUMAGULning**

**“ Boshlang`ich sinf o`qish darslarida xalq og`zaki ijodini
o`rganish orqali o`quvchilar nutqini o`stirish metosikasi”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) G'.Rahmonov**

Qo`qon – 2020

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. Boshlang'ich sinf o`qish darslarida xalq og`zaki ijodini o`rganish orqali o`quvchilar nutqini o`stirishning ilmiy-metodik asoslari

- 1.1. Xalq og`zaki ijodi va uning ta`limiy-tarbiyaviy ahamiyati.....
- 1.2. Boshlang'ich sinf o`qish darslarida xalq og`zaki ijodini o`rganish o`rqali o`quvchilar nutqini o`stirishning hozirgi ahvoli.....
- Birinchi bob bo`yicha xulosalar.....

II BOB. Boshlang'ich sinf o`qish darslarida ertak va masallarni o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish usullari

- 2.1. Boshlang'ich sinf o`qish darslarida xalq ertaklarini o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish
- 2.2. Boshlang'ich sinf o`qish darslarida masallarni o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish
- 2.3. Boshlang'ich sinf o`qish darslarida xalq topishmoqlarini o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish
- 2.4. Boshlang'ich sinf o`qish darslarida xalq qo`shiqlarini o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish
- 2. 5. Boshlang'ich sinf o`qish darslarida xalq maqollarini o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish
- Ikkinchi bob bo`yicha xulosalar.....

III BOB. Boshlang'ich sinf o`qish darslarida xalq og`zaki ijodini o`rganish orqali o`quvchilar nutqini o`stirish bo`yicha tajriba-sinov ishlari

- Uchinchi bob bo`yicha xulosalar.....

UMUMIY XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni O'zbekiston istiqbolini yaratishga qodir yangi avlodan ilg'or dunyo hamjamiyatida o'zining bilimi, aql-idroki bilan mustahkam o'rin egallay oladigan barkamol mutaxassislar tayyorlash zaruratini o'rta qo'ydi. Respublikamiz xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida davlat tilida jahon o'lchovlariga muvofiq tarzda ish yuritish, milliy qadriyatlar va ma'naviy-madaniy fazilatlarga amal qilish O'zbekiston mustaqilligini va istiqbolini ta'minlashning muhim omilidir. Shunga ko'ra, bo'lg'usi avlodni mustaqil va ijodiy fikrlashga odatlantirish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalashga o'rgatish boshlang'ich ta'limning muhim vazifasi bo'lib qoldi. Bu vazifani amalgam oshirishda bevosita o'qish darslari ham mas'uldir.

O'qish darslari ta'lim-tarbiya jaryonining markazi hisoblanadi. Shuning uchun ham davr talabiga mos ravishda komil insonni tayyorlashda o'qish mashg'ulotlarining o'rnini katta ekanligi ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan barcha ilm ahliga va metodistlarga ma'lum. Boshlang'ich ta'limda o'qish darslariga alohida ahamiyat qaratiladi va o'qituvchining zamon talabiga mos ravishda dars o'tishi talab etiladi.

2010- yilda tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning Davlat standarti"ga muvofiq ravishda tuzilgan boshlang'ich sinf ona tili ta'limi tarkibiga kiruvchi o'qish dasturi 11 yil davomida takomillashtirib borilmoqda. Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarining yangi avlodlari yaratilmoqda. Ular tarkibiga kiritilgan badiiy matn ustidagi ishlar sifat jihatidan takomillashtirilmoqda. Jamiyatimiz shiddat bilan olg'a borayotgan va muttasil ravishda yangilanib borayotgan bir zamonda o'qish predmeti bo'yicha o'qitish metodlarini bugungi davr talablari asosida qayta nazardan o'tkazish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlari o'qish darslarida o'rganiladigan xalq og'zaki ijodi namunalarida o'z aksini topadi. Bu borada o'qish darslari katta mas'uliyatli vazifalar yuklatiladi.

Ma'lumki, o'qish darslari faqat pedagogik maqsadlarga xizmat qiluvchi fan bo'libgina qolmay, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan boshqa fanlar

singari, o`quvchilarga birinchi navbatda bilim beradi, ya`ni ko`p asrli o`zbek xalqining boy madaniyati tarixi bilan, xalq og`zaki ijodida o`z ifodasini topgan xalq va mamlakat tarixi bilan tanishtiradi, adabiyotning fan sifatidagi o`ziga xos tomonlari haqida amaliy tasavvur hosil qiladi. Aniqroq aytganda, boshlangich sinf o`qish darslari umumta`lim maktabida bilimlarni egallash uchun poydevor yaratadi.

Boshlang`ich ta`lim davlat ta`lim standartining sinfda o`qish va sinfdan tashqari o`qish dasturi mazmunida: “Sinfda va sinfdan tashqari o`qish dasturining mazmuni kichik yoshdagi o`quvchilarda imon- e`tiqod tuyg`ularini shakllantirish, vatanga muhabbat uyg`otish, o`zligini tanish orqali olamni tanishga yo`llash maqsadlariga xizmat qiladi. o`qish bolalarning nutq boyligini oshirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, mustaqil fikrlashga o`rgatishning muhim omilidir. Shuning uchun ham boshlang`ich ta`lim tizimida muhim o`quv predmeti ta`lim berish, kamol toptirish va tarbiyalash vositasi hisoblanadi”¹, - deb ta`kidlab qo`yilgan. Bu maqsadga erishishda boshlang`ich sinf o`qish kitobiga kiritilgan badiiy adabiyot namunalari muhim o`rin tutadi.

Ma`lumki, yozma adabiyotning maydonga kelishida muhim manba bo`lgan o`zbek xalq og`zaki ijodi dunyodagi eng boy og`zaki ijodlardan biri bo`lib, ko`plab doston, afsona, rivoyat, ertak, masal, qo`shiq, maqol, topishmoq singari asarlarni o`z ichiga oladiki, ularda, bir tomondan, xalq tarixi, maishiy madaniyati, urf-odatlar va h.k. o`z aksini topgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, shu asarlar xalqni, ayniqsa, yosh avlodni milliy an`analar ruhida, shuningdek, vatanparvarlik, erkparvarlik, to`g`rilik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalab kelgan. Shuning uchun ham yozma adabiyot bilan birga umumiy ta`lim maktablari o`quvchilariga o`zbek xalq og`zaki ijodining eng yaxshi namunalari haqida ma`lumot beriladi. Xalq og`zaki ijodining janr xususiyatlaridan kelib chikib, ularning syujet va badiiy xususiyatlari ustida ishlash usullarini takomillashtirish davr talabidir.

¹ Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi. Boshlang`ich ta`lim. –T. SHarq. 1999.54-bet.

Adabiyot ijtimoiy fan tarmog`i sifatida shu kecha-kunduzda tug`ilib va shakllanib kelayotgan avlodni milliy g`oya asosida tarbiyalashga xizmat qilishini nazarda tutsak, mavzuning dolzarbligi yanada aniqlashadi.

Boshlang`ich sinf o`qish darslari ko`proq o`quvchining mavjud bilimlarini boyitishga, ular asosida hayotiy xulosalar chiqarishga yo`naltiradi. O`qish darslari oldiga o`quvchi badiiy asarlarni to`g`ri ifodali, ongli o`qish ko`nikmalari, badiiy asarni emotsional idrok etishlariga, yaxshilik va yomonlik tushunchalarining mohiyatini anglashlariga erishish vazifalari qo`yiladi. Jumladan, ertaklarni o`qib-o`rganish orqali xalq og`zaki ijodiga qiziqish uyg`otish va shu asosda o`zi mustaqil ravishda ertaklarni o`qishga intiladi. Hozirda boshlang`ich sinf o`qituvchilari keng foydalanayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llab o`quvchilarning dastur talablarini bajara olish ko`nikmalarini egallashlariga erishishdir.

**Mavzuning o`rganilish darajasi.** Xalq og`zaki ijodini o`rganish o`rqali o`quvchilarning ifodali o`qish malakasini takomillashtirish bo`yicha metodist olimlar aynan ilimiy izlanishlar olib borishgan bo`lmasalar-da, lekin shu mavzuga yaqin ishlari bo`yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Boshlang`ich sinflarda mazkur muammo bo`yicha metodist olimlar, jumladan, professor, K.Qosimova, S.Matchonov, X.G`ulomova, SH.Yo`ldosheva, SH.Sariyevning «Ona tili o`qitish metodikasi» (T., «Noshir», 2009), boshlang`ich sinflarda o`qish darsliklariga ishlangan metodik qo`llanmalarda² - boshlang`ich sinf o`qish kitobiga yozilgan “1-sinfda o`qish darslari”, “2-sinfda o`qish darslari”, “3-sinfda o`qish darslari”, “4-sinfda o`qish darslari” metodik qo`llanmallarida ham nutq o`stirish bo`yicha tavsiyalar berilgan.

**Tadqiqot ob`ekti.** Boshlang`ich sinf o`qish darslarida xalq og`zaki ijodi namunalari: maqollar, matallar, topishmoqlar, ertaklar, tez aytishlar.

Tadqiqot metodi. Kuzatish, tahlil, so`rovnoma, tajriba-sinov.

² T.G`afforova va b. 1-sinfda o`qish darslari. –T.: -Sharq. 2011; Q.Abdullayeva va b. 2-sinfda o`qish darslari. –T.: -O`qituvchi. 2004; M.Umarova va b. 3-sinfda o`qish darslari. –T.: -O`qituvchi. 2004; S.Matchonov va b. 4-sinfda o`qish darslari. –T.: -Yangiyo`l poligraf servis. 2007;

Tadqiqot maqsadi boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish metod va usullarini ishlab chiqish orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish.

Tadqiqot vazifasi yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi masalalarni hal etadi :

- boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish orqali o'quvchilar nutqini o'stirishning hozirgi ahvolini tahlil qilish;

- boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi asarlari ustida ishlash orqali o'quvchilar nutqini o'stirish usullarini takomillashtirish;

- boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi asarlari ustida ishlash orqali o'quvchilar nutqini o'stirish usullarini tajriba-sinovdan o'tkazish va tajriba natijalarini umumlashtirib xulosalash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy yangiligi.

- Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'rganiladigan xalq og'zaki ijodi namunalari matni ustidagi ishlar orqali o'quvchilarning ifodali o'qishga yo'naltirildi;

- Ertak matni tahlilida uning syujeti, badiiy tasvir vositalari, tili ustida ishlash, ertakni qismlarga bo'lish, reja tuzish, ertak qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish orqali o'quvchilarning ifodali o'qish usullarini ishlab chiqildi.

- Masal, topishmoq, maqol ustida ishlash orqali o'quvchilarning ifodali o'qish metodikasi ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi. Ish kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan.

BIRINCHI BOB

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodini o'rganish orqali o'quvchilar nutqini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari

1.1. Xalq og'zaki ijodi va uning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati

Xalq og'zaki ijodining eng boy va rang – barang janrlaridan biri - ertakdir.

Ertaklarning ijtimoiy kelib chiqishi uzoq o'tmishga, ota – bobolarimiz zamonasiga borib taqaladi. Ertaklar oldin og'zaki tarzda avlodan-avlodga o'tib kelgan bo'lsa, yozuv paydo bo'lgach ikki xil shaklda: ham og'zaki, ham yozma shaklda bizgacha yetib kegan. Ertaklar insoniyatning bitmas tugallamas madaniyati xazinasi sifatida bundan kryn ham yashayveradi. Ertaklar boshqa janrlardan o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Unda xalq hayoti, kurashi dunyoqarashi, urf -odatlar, hayotiy tajribalari o'z ifodasini topadi. Ertaklar xalq hayoti bilan juda yaqindan bog'langanligi uchun unda insonlarning ahloqiy va ma'naviy qiyofasi yoritiladi. Ertakning yana bir xususiyati – badiiy umumlashmalarning ixcham, jonli va yuksak badiiy ifodalar orqali ta'sirlanishidir. Ularda ko'pincha qahramonlar nomi berilmaydai, ular boy, kambag'al, saxiy, hassis, shaxzoda kabi nomlanadi. Bu ertakda qanday g'oya ilgari surilayotganini oydinlashtirib turadi. O'zbek xalq ertaklari mazmuni tematikasi va poetic xususiyatlari va ularda ko'tarilgan muommolarga ko'ra quyidagi turlarga bo'lib o'rganiladi:

- 1) Majozli ertaklar;
- 2) Sehirli ertaklar;
- 3) Maishiy ertaklar.

Tabiat olami bilan bog'liq ertaklar ham kichkintoylarga katta quvonch bag'ishlab keladi. Bolalar bepayon, go'zal, musaffo, dalalar, o'rmonlar, baland tog'lar, tezoqar daryo – anhorlar bilan yaqindan tanishadilar, ulardan zavqlanadilar. Tabiat manzarasining tasvirlanishi asarning his – hayajon ta'sirini kuchaytiradi, hamda bolalarda hayotga muhabbatini oshiradi, ularning his – tuyg'ularini uyg'otadi. “Quyoshbobo nurlari”, “ Uzun terak”, “ Shamol- botir”, “Qish ertagi” (2-sinfda), 4-sinfda Ollayorning “Rangin qorlar” ertaklari bunga misol bo'ladi.

Majoziy, ya'ni hayvonlar haqidagi ertaklar juda qadim zamonda yaratilgan, ularda kuchlilar kuchsizlarni qanday qilib ranjitgani, azop bergani kabilat hikoya qilinadi. Ba'zan kuchsiz hayvonlar kuchli hayvonlarga chap berib qutilib qoladilar,

ba`zan esa hiyla yo`li bilan kuchlilardan o`ch oladilar. Hayvonlar haqidagi ertaklar hajman kichik, voqealari soda bo`ladi. Ular hayoliy uydirma voqealarda tashkil topadi. Bunday ertaklarda hayvonlar insonlar bilan to`qnashadi, so`zlashadi. Ular xuddi hayvonlardek shakilga ega bo`lsalar ham biroq o`zaro odamlardek munosabatda bo`ladilar. Hayvonlar haqidagi ertaklarda zo`ravonlik, nohaqlik, adolatsizlikdan ko`pinch aql kuchi bilan qutilish mumkin degan xulosa kelib chiqadi. Bu ertaklar ibratomuz g`oya, ta`lim – tarbiya vazifasi bilan alohida ahamiyat kasb etadi: “Yaxshilikka yomonlik”, “Maqtanchoq ayiq”, “Nima totli”, “O`jar baliqcha”, (2-snf) kabi ertaklar shular jumlasidandir.

Sehrli ertaklarning yuzaga kelishi ibtidoiy jamiyatdga borib taqaladi. Ma`lumki, ibtidoiy inson o`ziga noma`lum bo`lib ko`ringan tabiat hodisalari oldida talvasaga tushgan, har qadamda uchraydigan xavf- xatarlar uning ruhiyatiga ta`sir qilgan. Ibtidoiy inson ularni o`zich izoxlashga majbur bo`lgan. Natijada ibtidoiy dunyoqarash, dastlabki fikr muloxazalar, miflar, afsona va ertaklar yuzaga kelgan. Sehrli ertaklardagi har bir epizod qahramonlarining hatti – xarakatlari sehr- jodu, mo`jiza, umuman olganda hayoliy obrazlar bilan bo`g`lanadi. “Urto`qmoq”, “Oltin tuyoqli kiyik”, “Zumrad bilan Qimmat” ertaklari sehrli ertaklar sanaladi.

Qahramonlikni hikoya qiluvchi ertaklar: “Uch og`a – ini botirlar”, “Alpomish”, “Mitti polvon” kbilardir. Sehrli – afsonaviy ertaklarda, asosan, insonlar hayoti ularning tabaitgga munosabat dunyoqarashi, orzu – umidlari ifodalanadi. 2 – sinf “O`qish kitobi” da berilgan “Uch to`qmoq” ana shunday ertaklar jumlasiga kiradi. Bu ertakda soda, kambag`al cholning erkin, farovon yashashga intilishi hikoya qilinadi. Chol tuzoqqa tushgan laylakni yalinib – yolvorishi sababli qo`yib yuboradi va evaziga “Qaynar humcha”, “Ochil dastuxon”, “Ur to`qmoq” kabi sehrli kuchga ega bo`lgan buyumlar bilan taqdirlanadi. Demak, bu sehrli – afsonaviy ertakda kelesakda baxt – saodatli kunlarga erishish, farovon hayot orzusi nihoyatda keng yoritilgandir. Vatanimizdagi har bir xalqning o`z milliy qahramonlari bor.

Har qaysi xalq o`zining ajoyib qahramonlarini yaratgan. Mehnatkash xalqning tilak va orzulari, qahramonlik, vatanparvarlik tuyg`ulari, dushmanga nisbatan g`azab va

nafrati, yengilmas irodasi, haqiqatga adolat va baxt haqidagi o'y - fikrlari ertaklarda turli usullarda aks ettiriladi.

Demak, boshlang'ich sinfda o'tiladigan ertaklar bolalar fikrini va tasavvurlarini boyitadi, ularni ijodiy ishga ruhlantiradi. Maktab ostonasiga ilk qadam qo'yolgan bolaning ongida mehnatsevarlik, rostgo'ylik, rahmdillik, odoblilik, saxiylik kabi fazilatlarining ijobiy ekanligiga, ochko'zlik, yolg'onchilik, firibgarlik, razillik, zolimlik, nohaqlik, erinchoqlik kabilar salbiy xislatlar ekanligiga ko'nikma va tasavvurlar hosil qiladilar. "Laqma it" ertagi orqali mehnati bilan hotirjam, tinch, farovon, to'q, mustaqil yashash mumkinligini, dangasalik boshga kulfat olib kelishini bilib olsalar "Salomlashish odobi" (Anvar Obidjon) yaxshi so'z do'stlar orttirishga yordam berishini, odob – axloq qoidalarini bilib olishlariga yordam beradi.

Yozuvchi va shoirlar ham, hatto maktab o'quvchilari bolalar uchun ertaklar yaratmoqdalar. Ular yaratgan ertaklar ham tabiat, hayvonlar, sehrgarlar va insonlar haqida. Yozuvchi tomonidan yaratilgan adabiy ertaklar ham xalqning ma'naviy tuyg'ulari va qahramonligini, mardlik, Vatanga bo'lgan chin muhabbat hamda beg'uborlikni ifoda etadi. Ularda ham insonlar bir – biriga do'st va g'amxo'r bo'lib, zulmga, adolatsizlikka qarshi yakdillik bilan kurashadilar. Nohaqlikni yengib, haqiqatni ro'yobga chiqarish, mehnatkash insonning betakror qiyofasi o'quvchi qalbida bir umr muhrlanib qoladi. O'zida xalqparvarlik g'oyalarini ilg'ari surgan "Ziyod botir", "Malikai xusnobod" singari ertaklar ularning eslarida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Aksariyat ertak va dostonlarda mehnat, aql va idrok ulug'lanadi, hunar o'rganish targ'ib qilinadi. Ulardagi haqiqatga yaqin hayotiy o'y – fikrlar yanada jonli tasvirlanadi. Bolalar qalbida kelajakka ishonch tuyg'usini uyg'otadi. Bir vaqtlar xalq yaratgan "Uchar gilam", "Urto'qmoq" singari ertaklardagi orzular bugungi kunda haqiqatga aylanganligi sir emas. Bir qator ertaklarda tasvirlangan gulgun chexralar Hushobod singari xotin – qizlar misolida ularning kuchda, aqlda, donishmandlikda erkaklardan also qolishmasligini badiiy jihatdan yaqqol ko'rsatib beradi.

Ertaklar kelajakka ishonch, katta umid, ko'pchillika yoqib qolgan qahramonlarning murod maqsadlariga erishishi ko'tarinki ruh bilan ifoda etiladi. Ular og'ir vaziyatga tushib qolganlarida ham, to'sqinlikka uchraganlarida ham also

umidsizlikka tushmaydilar, aksincha g'alaba qozonishga ishonadilar. Ko'pchilik ertaklardagi ijobiy qahramonlar murod – maqsadlariga yetadilar. Bu esa o'tmishda xalqning o'z kelajagiga bo'lgan katta umidi, baxtli, yorug' kunlar kelishigi ishonganligi ifodasidir.

Shunisi harakterliki, deyarli barcha ertaklar asosida ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi keskin kurash turadi va albatta, ezgulik tantanasi bilan yakunlanadi.

Qadim zamonlardayoq kishilar tabiat kuchlari ustidan hukmronlik qilish, dunyoda ro'y berayotgan hamma voqea hodisalarni anglash, ozod mehnat adolat, baxtni orzu qilishgan. Barcha mamlakatlardagi kishilarning orzulari bir – biriga o'xshash bo'lgan, lekin har bir xalq ularni o'zicha ifoda etgan. Xalqlarning mana shu orzu – umidlaridan o'zining muayyan qonuniyatlariga ega ajoyib ertaklar dunyosibunyodga keladi. Ertaklar tinglovchidan ham dadil afsonviy fantaziya va ijodiy tasavvur qilishni talab etadi. Shunday ham bo'ldiki eng dadil afsonviy to'qimalar haqiqatga aylandi. Masalan: ucha qalam – samalyot nomi sehrli ertakdan kelib chiqqanini bilasizmi? Bundan yuzlab yillar muqaddam, hali biror kishi yerdan ko'tarilishga muyassar bo'lmagan bir vaqtda ertak qahramonlari gilam – samalyotda ulkan masofalarini bosib o'tdilar. Albatta inson samoga ko'tarilgan hozirgi samalyot ertakdagiga o'xshmaydi, lekin bunda insoniyatning osmonda parvoz qilish haqidago qadimiy orzusi ro'yobga chiqdi.

Orzuning keng qanotliliigi va niyatlarning oily janoblighi butun jahon o'quvchilarini azaldan xalq ertaklariga jalb etgan.

Rus shoirlari: Pushkin, Nekrasov, Lermontov; fransuz ertakchisi Perro, Daniyalik Andersen, nemis yozuvchilari Aka-uka Grimmlar, o'zbek shoiri Hamid olimjon, Quddus Muhammadiy va boshqa ko'plab so'z san'atkorlari xalq ertaklari asosida o'zlarining ajoyib ertaklarini yaratdilar. Masalan, Quddus Muhammadiy “Bog'bon chol uch xum ertak aytganmish”, “Qo'ng'iz oy bilan Sichqon toy”, Hamid Olimjonning “Oygul bilan Bahtiyor”, “Semrug”, Chukovskiyning “Pashsha oyposhsha”, “Doktor voyjonim”, A.S.Pushkinning “Oltin xo'roz”, “Pop va uning xizmatkori Balda”, “Shoh sulton uning azamat o'g'li botir Gividon” haqidagi ertaklarni sevib o'qiymaydiga o'quvchining o'zi bo'lmasa kerak. Ertaklar bugungi ham bizga zarur. Ular faqatgina ko'ngil ochib kishilarni hursand qilib qolmaydi, ular adolat va ezgulikka va muhabbat

tuyg`usini qaror toptiradi, fikrning mardonavorligi va hayotning shijoatkorligini tarbiyalaydi. Bu fazilatlar barcha davr kishilari uchun zarurdir. Bizning davrimizda misli ko`rilmagan ishlar va kashfiyotlar davrida esa yana ham zarurroq, chunki kichikmi yoki kattami kashfiyotlar:

-Agar shunday bo`lsa – chi ... deb boshlanadi. Ko`rinib turibdiki boshlang`ich sinf o`qish kitolaridan ertaklar bejiz katta o`rin egallamagan.

Keyingi yillarda xalq ertaklarini to`plab, bolalar uchun nashr ettirishga katta e`tibor qaratilmoqda. Uchta kitobdan iborat “Xalq ertaklari” to`plami chop etildi. “Cho`lpon” nashriyotida (2004-yil) “Oltin beshik” o`zbek xalq ertaklari nashr qilindi.

Boshlang`ich sinf “O`qish kitobi” darslarida xalq og`zaki ijodiga alohida ajratilishidan tashqari, boshqa bo`limlarda ham mavzuga doir ertaklar kiritilgan.

Biz kuzatgan darslarda o`quvchilar ertak o`qishga va eshitishga juda qiziqishlari ma`lum bo`ldi. Ertaklarning jozibasini va ta`limiy – tarbiyaviy ahamiyatini o`quvchilarga yetkazish o`qituvchidan pedagogik mahoratni talab etadi. O`qish metodikasi oldida turgan muhim vazifalardan biri ertak o`qib- o`rganiladigan darslarni ilg`or pedagogik tehnologiyalar asosida tashkil etish usullari shakillarini ishlab chiqishdir.

Xalq pedagogikasida asosiy tarbiya usuli o`git, nasihat hisoblanadi. Bu usulning ifodasi naqllarda yaqqol ko`rinadi. “Naqlar – muayyan asardagi bayon orasida kelib, u yoki bu ahloqiy mezon va tushunchalar haqida yuzaga kelgan fikrlarni ko`chma ma`noda izohlovchi, ta`limiy ahamiyat kasb etadigan majoziy hikoya”. Demak, majoz naqlning muhim belgisi hisoblanadi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining ma`naviy madaniyatining shakillanishida talim – tarbiya birligini ta`minlash, ko`rgazmalilikka rioya qilish kabi tamoyillari xalq og`zaki ijodining marosimlar qo`shiqlari orqali yaqqol namayon bo`ladi. Umuinsoniy qadriyatlarning mohiyati falsafa, ahloq, din, badiiy to`qima unsurlarining mushtarak birligida ertaklar vositasida o`quvchi ma`naviy madaniyati saviyasiga ta`sir etadi.

O`quvchi badiiy mahorat bilan yaratilgan ertaklardan estetik zavq oladi, unda xalqni kelajak bahtiyor turmushga ilhomlantiruvchi fantaziyalari orqali hayot haqiqatiga intiladi. Faqat oddiy fantaziyalardan iborat bo`lmagan ertaklar o`zining

optimistik xarakteri, joziba kuchi, ta'sirchanligi, fantaziyaga boyligi, jabr – zulmga, adolatsizlikka qarshi qahr g'azab ruhi bilan sug'orilganligi bilan insonning kelajak ma'naviy va moddiy hayoti haqida bashorat ham qiladi. Mavjud hayotiy voqealar asosida yaratilgan ertaklar mazmunida ijtimoiy munosabatlar o'z yechimini topadi. Bunday ertaklarning mazmuni, voqealar rivoji umuminsoniy qadriyatlarining mohiyati, ertakda olg'a surilgan g'oya kichik yoshdagi o'quvchilar ongida haqqoniy bahosini ololmaydi.

Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruhiy va yosh xususiyatlariga ko'ra, bunday ertaklar ularning ma'naviy ongiga, faoliyat mazmuniga, hissiyoti, xarakter xususiyatlariga ijobiy ta'sir etdai. Ertakning o'ziga xos xususiyatlarini aniq bilgan o'quvchi unda ko'tarilgan g'oyaning asl mohiyatini tushunadi, ertak mazmunidagi uydirma xarakterdagi voqea – hodisalardan hayotiy xulosalar chiqarishga o'rganadi. Ertaklarning asosiy g'oyaviy yo'nalishini adolat, jasurlik, qahramonlik, ezgulik, insonparvarlik, farovon hayot, vafo, xalqparvarlik kabi ma'naviy qadriyatlar tashkil etadi. Bu qadriyatlar hayvonlar haqidagi ertaklarda majoz, sehrli ertaklarda fantastik uydirma, maishiy ertaklarda hayotiy uydirmalar asosida o'quvchi ongiga singdiriladi. Majoziy ertaklarda turli hayvonlar misolida umuinsoniy qadriyatlar mazmuniga zid qo'rqqoqlik (quyon), makkorlik (tulki), vaxshiylik, yirtqichlik (bo'ri, sher) ayyorlik (mushuk) keskin qoralanadi. Bu inkor insonlarga ham xos bunday sifatlarni keskin yo'naltiriladi. Asar syujetli esa albatta ezgu ishlarning g'alabasi bilan tugallanadi. Bunday ertaklardagi ramzlar vositasida ijtimoiy – siyosiy qadriyatlar (tinchlik, tenglik, o'zaro totuvlik, ozodlik, erkinlik) kundalik turmushdagi ijobiy xatti – harakatlar maqullanadi, targ'ib etiladi.

Sehrli ertaklar syujetli bevosita ilohiy kuchga, fantastikaga asoslanadi. Bunday ertaklardagi asosiy qatnashuvchilar – podsho , shahzoda, malika, vazir, dehqon, temirchi, dev, jodugar pari va boshqalar tomonidan olg'a surilgan insonparvarlik qahramonlik, adolatparvarlik, chin sevgi, muhabbat g'alabasi, vafodorlik g'oyasi o'quvchida mantiqiy fikirni o'stiradi, ijodkorlikka da'vat etadi, fikrlash doirasini kengaytirishga g'ayritabiiy hodisalar ustidan yaxshilik va insonparvarlikning doimo g'olib kelishiga ishonch tug'usini paydo bo'lishiga ta'sir etadi.

Maishiy ertaklar ijtimoiy – siyosiy, ma`naviy hayotdagi voqea va hodisalarni qadriyatlar timsolida aniq uydirmalar orqali sarguzasht davomida ifoda etadi, sevgida vafodorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, insonparvarlik, jaholatga, adolatsizlikka, sotqinlikka, razolatga qarama - qarshi o`laroq doimo g`alaba qiladi. Bu jihatdan “Uch o`g`ayni botirlar” va shu kabi boshqa ertaklarning qahramonlari voqelikka mos voqea va hodisalar jarayonida o`z yurti, xalqi, muhabbati, e`tiqodi yo`lida mardlik, jasorat namunalarini ko`rsatadilar. Ijobiy obrazlarga xos yuksak ma`naviy – ruhiy qadriyatlarni ideallashtirish hayotiy voqea- hodisalar tasvirida mubolag`a, o`xshatish sifatlash kabi poetik vositalardan unumli foydalanish maishiy ertakalarning tarbiyaviy ta`sirini yanada oshiradi.

Ertaklardagi ijobiy qahramon namunasi salbiy holatlarni qoralash, ma`naviy madaniyatni tarbiyalashda o`rnak, namuna, qoralash, rag`batlantirish usullari uchun asos bo`la oladi.

Xalq og`zaki ijodining asotir, afsona, rivoyat, xalq marosimlari, qo`shiqlari, ertaklari, doston, maqol, matal, latifa, askiya, folklor teatri va boshqalar – xalq pedagogikasining muhim bir yo`nalishini tashkil etadi va o`quvchining ma`naviy madaniyatini shakillantirishda qator vazifalarni bajaradi. Ularning ahamiyati quyidagicha:

-xalq og`zaki ijodi namunalari mazmuni milliy asosga ega bo`lib, ikki tamonlama xarakterni o`zida mujassamlashtirgan: birinchidan u xalqning ma`naviy talab – ehtiyojlari asosida ma`lum bir davrda madaniy manba sifatida vujudga kegan; ikkinchidan, u xalqning tajribada sinalgan yuksak ahloqiy – ma`naviy xarakter xususiyatlarini tarbiya mezonlarini umumlashtirib xalq o`rtasida qadriyat darjasiga ko`tarilishida targ`ibot vazifasini bajarib keladi;

-xalq og`zaki ijodi muhim ilmiy manba hisoblanadi. Tarbiya jarayonini aqliy jarayondan jralgan holda tasavvur etib bo`lmaydi. Badiiy estetik manbalar hissiyot orqali aqilni, aqil orqali hissiyotini tarbiyalash vositasidir. X alq og`zaki ijodining barcha janirlariga xos mihin xususiyat ham aqliy teranlik, mantiqiy fikirlash asosida ma`naviy madaniyatning barcha qirralarini ongli o`zlashtirish va aksincha, ilg`or qadriyatlarni amaliyotga tadbiq etish orqali aqliy barkamollikka erishishni

ta'minlashdan iboratdir. Ta'limiy va tarbiyaviy yagona maqsadni amalgam oshirish xalq og'zaki ijodi manbalarining yetakchi g'oyasi hisoblanadi.

-badiiy san'at asarlarida hissiy ta'sir yetakchi o'rinda turadi. Badiiy so'z, epchil va chaqqon, harakatlar, pantamima, imo – ishoralari, tovushlarning ohangdorligi va musiqiy jozibadorligi badiiy – estetik tafakkurni shakillantirish vositasi bo'lib, xizmat qiladi;

-xalq og'zaki ijodi uchun xos xususiyat ustoz va shogird an'anasi bo'lib, qachonlardir xalq tomonidan ehtiyoj asosida yaratilgan hayot sinovidan o'tgan ustoz shogird, avlodan – avlogda, ota – onadan farzandga, og'zaki tinglash, og'zaki o'zlashtirish kelgusi avlodga yetkazish yo'li bilan tarbiyada davomiylik, izchillik tamoyiligi asos solingan;

-xalq og'zaki ijodida asos solingan ta'lim – tarbiya usullari buyruq, o'git, nasihat, namuna, o'rnak, murojaat, iltijo, kinoya, pichin, kesatiq, yumshoq, zaxarxanda, yumaristik tanqid, maqullash, olg'a surilgan tarbiyaviy g'oyaning ta'sir kuchini oshirishga qaratilgan poetik vositalar, mubolag'a, o'xshatish, sifatlash, bo'rtirish, mimika, pantomime, pauza, metomimiya, metafora, didaktik tamoyillar ta'lim – tarbiyada ko'rgazmalilikka rioya etish nazariyalarining amaliyot bilan birligini ta'minlash, ijobiy fazilatlarga tayanib salbiylarni bartaraf etish ta'lim-tarbiya vositalari badiiy-estetik manbalar maxsus uyushtirilgan drammatik holat, ilg'or tajribalarga murojaat, musiqa asboblari, madaniy buyumlar, ashyolardan ta'lim-tarbiyaviy maqsadda foydalanish o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakillantirish uchun ham usul, tamoyil, vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodining bolalar uchun eng qiziqarli va ta'limiy-tarbiyaviy ta'siri kuchli bo'lgan janri topishmoqlardir. Topishmoqlar ham xalq og'zaki namunalaridan biri sanaladi. “Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir”³. Topishmoq matnida narsa yoki hodisalarning belgisi, shakli, harakati, holati, vazifasi va boshqa tomonlari berilgan bo'ladi. Topishmoqlar qadimda “jumboq”, “top-top” deb

³ K.Qosimova va b. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.: Noshir, 2009. –bet

yuritilgan. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf-odati, o'ziga xos rasm-rusmlari bilan bog'liq bo'ladi.

Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi. Topishmoq o'quvchilarni topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. SHu sababli xalq og'zaki ijodining bu janridan darsliklarda ko'p foydalanilgan. Topishmoqlar ham mavzu doirasi jihatidan xilma-xil. Ular ham boshlang'ich ta'limning 3-sinfidan boshlab maxsus darsda o'rganiladi. Lekin 1- sinfdan boshlab o'rganilayotgan mavzuga bog'liq holda topishmoqlar ustida ishlanadi. Topishmoqlarning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, izlanishga, fikrlashga undaydi, aqlini charxlaydi. SHu yo'sinda bilim beradi. Tushunchalarini boyitadi. Nutqini so'zlar bilan boyitadi. Bu matnlarni o'qiganda tushunish imkonini beradi.

Xalq og'zaki ijodining yana bir janri maqollardir. Maqollarga "Maqollar xalqning yoki buyuk shaxslarning turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralardir"⁴ deb ta'rif beriladi. Maqollar xilma-xil mavzularda bo'lib, hayotning turli masalalarini qamrab oladi. Ko'pincha maqol o'git, nasihat xarakterida bo'ladi: *"Kitob-bilim manbai"*, *"Bilagi zo'r birni yiqar, Bilimi zo'r mingni yiqar"*, *"Bola aziz, odobi undan aziz"*, *"Yomondan qoch, yaxshiga yondash"* kabi.

Maqol xalq og'zaki ijodining juda qadimiy shakllaridan biri bo'lib, unda xilma-xil badiiy ifoda vositalari - ohangdor tovushlar takrori bo'ladi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo'lgan ajoyib so'z ustalarining o'lmas satr va hikmatli so'zlari ham ko'pincha xalq maqollariga o'xshab ketadi. Masalan, A. Navoiyning "Mahbub ul-qulub"da aytgan bir qancha hikmatli so'zlari shular jumlasidandir: *"Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur"*, *"Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz"* va boshqalar. Maqollarni faqat yod olish emas, uning mag'zini chaqish bola tarbiyasiga kata ta'sir qiladi. Bundan tashqari, ota-bobolarining qaydarajada kata aql egasi ekanliklarini bilib oladi va ular bilan faxrlanadilar.

⁴ K.Qosimova va b. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.: Noshir. 2009. –bet

Masal janri ham kata ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. "Masal - axloqiy, satirik va kesatiq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo'lishidan tashqari, kulgili savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan pirovardida qissadan hissa - ibratli xulosa chiqariladi"?- deyiladi professor K.Qosimovalarning "Ona tili o'qitish metodikasi"⁵ darsligida.

Adabiyot nazariyasida masalga liro-epik janrlardan biri sifatida she'riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa syujetli asar deb ta'rif beriladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi.

Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo'lgan kichik pyesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa, mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo'la oladi.

«Antik adabiyotda Ezop masallari juda mashhur bo'lgan. O'z ma'nosidan ko'chirilgan (majoziy) so'z va kinoyaviy iboralar orqali qilinadigan "yashirincha" tanqidning tili va uslubi Ezopga nisbatan berilib, "Ezop tili" deyilgan va shu ta'bir joriy qilingan»⁶.

Ezop quldorlik jamiyati sharoitida hukmron doiralarning jirkanch kirdikorlarini ochiqdan-ochiq tanqid qilish ilojini topolmagach, o'zining satirik asarlarini kinoyaviy til va uslubda yozishga majbur bo'lgan. Feodal istibdodi sharoitlarida yashab ijod etgan mashhur rus masalchisi I. A. Krilov ham, atoqli o'zbek masalchisi Gulxaniy ham "ezop tili"da yozganlar. Frantsuz shoiri Lafontenning masallari ham mashhur. A. Navoiy dostonlarining bir qancha epizodlari, "SHer bilan Durroj", "Kabutar" singari masallari yaxshi xislatlarni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.

O'zbek adabiyotida Sayido Nasafiy, Maxmur, Gulxaniy kabi shoirlar ham Navoiy an'alarini davom ettirganlar, bolalarbop ko'pgina masallar yozganlar.

⁵ K.Qosimova va b. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.: Noshir. 2009. –bet.

⁶ Homidiy H. va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. □ T.: O'qituvchi, 1979. 104 - bet.

Hayvonlar, parrandalar, hasharotlar, gullar haqidagi majoziy asarlarni bolalar qiziqib o`qiydilar. Mana shu nuqtai nazardan Sayido Nasafiyning “Bahoriyot” (“Hayvonotnoma”) asari ahamiyatlidir. Nasafiyning masallari, axloqiy va tarbiyaviy masalalarga doir fikr hamda qarashlari bolalarning o`qish va tarbiyasida katta ahamiyat kasb etishi bilan birga, ularning kitobxonlik doirasini ham kengaytiradi.

Mashhur masalnavis Gulxaniyning “Toshbaqa bilan CHayon”, “Maymun bilan Najjor” masallari boshlang`ich sinf o`quvchilarining yoshiga mos keladi. Ularda do`stlik, rostgo`ylik, qo`lidan kelmaydigan ishga urinmaslik kabi g`oyalar ilgari suriladi.

Ma`lumki, tarbiya ko`proq ta`lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg`usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo`ladi va bu orqali o`kuvchilar ma`naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayru ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g`urur, matonat, mehr-oqibat, do`stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo`ladi.

Jumladan, masal janridagi asarlar ham boladagi qo`pollik, qo`rslik, yolg`onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi. Lekin amaldagi boshlang`ich sinf “O`qish kitobi” darsliklarida masal janriga kam o`rin berilgan. Vaholanki, bola tarbiyasida masalning o`rni beqiyosdir. Masaldagi qissadan hissa o`quvchi matndagi e`tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o`qib o`tib ketgan, yaxshi anglashga harakat qilmagan o`rinni, bo`shliqni to`ldiradi.

3-sinf “O`qish kitobi”dan o`rin olgan “*Qaysar buzoqcha*” (O. Qo`chqorbekov) masali oilasi, o`rtoqlari, do`stlaridan ajralib, yomon yo`llarga kirib qolgan, oqibatda ko`ngilsiz holatlarga tushib qolgan bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ushbu masaldagi asosiy xulosa masal oxirida berilgan qissadan hissada, ya`ni ota-bobolarimiz yaratib, bizga nasihat sifatida qoldirgan “*Bo`linganni bo`ri yer*” hikmatida o`z ifodasini topgan. Bu hozirgi kunda maqol tusini olgan. SHoir esa bundan juda ustalik bilan foydalangan.

“*CHumoli va Tipratikan*” masali esa nasriy turga mansub bo`lib, unda CHumoli timsoli orqali bolalar halollikka o`rgatiladi, har bir narsani, u katta yoki kichik

bo'lishidan qat'iy nazar, so'rab olishga, egasining ruxsati bilan foydalanishga da'vat etiladi. Masalni o'qishda bolalar Tipratikan timsoliga tanqidiy nazar bilan yondashadilar, agar o'zining hayotida biron-bir shunday holat-voqea yuz bersa, uni boshqa takrorlamaslikka o'rganadilar.

Masalning, avvalo, ixchamliligi, tilining qisqa va lo'ndaligi, soddaligi, o'tkirligi va xalqchilligi bola hissiyotiga qattiq ta'sir qiladi. Bular o'quvchilar nutqini o'stirishda ham muhim material hisoblanadi. Masal qahramonlarining xatti-harakatlari, fe'l-atvorlari, nutqiy o'ziga xosliklari o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qiladi.

Tez aytishlar ma'lum so'zni, so'z birikmasini yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatadigan, xotirani mustahkamlaydigan va nutqni o'stiradigan janr hisoblanadi. Tez aytishlar o'quvchilarni tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, nutq tempini tezlashtirishga, nafasni to'g'ri olish va to'g'ri sarflashga o'rgatadi. Bu ta'limda muhim ahamiyatga ega. SHuning uchun ham savod o'rgatish o'qish darslarida tez aytishlardan ko'p foydalaniladi.

O'qish darslarida xalq qo'shiqlari ham o'rganiladi. Qo'shiqlar qadimda mehnat jarayonidagi qiyinchiliklarni unutish, g'am va shodliklarni bayon qilish vositasi sifatida yaratilgan. Undan bolalarni tarbiyalashda keng foydalanilgan. Ota-onalar, bobo-momolar bola va nabiralariga qo'shiq eshitishni va kuylashni o'rgatgan, bundan zavq olish ko'nikmasini shakllantirgan. Bu orqali mehnatga muhabbat uyg'otgan, ona-Vatan tuyg'usini va uni sevish tarbiyasini shakllantirgan.

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodi janrlari mavzu va mazmuni bilan, tili va badiiy vositalari bilan, haytning ko'proq hayvonot olami bilan tasvirlashi bilan kichik yoshdagi o'quvchilar yoshiga va qiziqishiga mos . Ularni o'qib-o'rganish o'tmish haqidagi bilimlarini boyitishdan tashqari, hozirgi hayot qadrini tuyish tuyg'usini yuzaga keltiradi.

1.2. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodini o'rganish orqali o'quvchilar nutqini o'stirishning hozirgi ahvoli

“O'qish kitobi” darsligidagi o'quv materiallari bolalarga ta'lim berish, ularni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ular o'quvchilarning borliq haqidagi bilimlarini

boyitadi va ularda yuksak insoniy fazilatlar shakllantiradi. O`quvchilarni badiiy, ilmiy-ommabop asarlar bilan tanishtirish orqali kitobxonlik madaniyatini tarkib toptiriladi.

O`tmishda vatanimiz va xalqimiz boshidan kechirgan muhim voqea-hodisalar aks ettirilgan asarlarni o`qish orqali o`quvchilarda ijtimoiy-tarixiy bilimlar shakllana boradi.

Ona yurt dahlsizligi yo`lida ajdodlarimiz olib borgan kurashlar tarixi haqida hikoya qilingan asarlar bolalarda vatanga muhabbat tuyg`ularini tarbiyalaydi.

Boshlang`ich ta`lim o`quv dasturidan o`rin olgan xalq og`zaki ijodi o`quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti va xalqning jangovor mehnati bilan tanishtirishga yordam beradi. Boshlang`ich ta`limning barcha sinflari o`quv dasturidan o`rin olgan xalq og`zaki ijodi bo`limi sinfdan sinfga o`tgan sari mavzu doirachi, janr xususiyati va hajm jihatidan kengayib boradi. Xalq og`zaki ijodi namunalarining inson e`tiqodi va ma`naviyatiga ta`siri kuchli bulib, bu o`qish darslarida oldida turgan vazifalarni hal qilishda kata omil bo`lib xizmat qiladi. O`qish daturida ham o`qishga o`rgatishning muhim vazifalari sifatida quyidagilar belgilab qo`yilgan:

- boshlang`ich o`qish malakalarini (to`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qishni) takomillashtirish;

- bolalarni o`qigan asarlarining adabiy- estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish, ularni

tasvirlangan voqea-hodisalar mag`zini chaqish, muayyan xulosalar chiqarishga tayyorlash;

- bolalarda yuksak ahloqiy sifatlarni va nafosat tuyg`usini tarbiyalash;
- o`quvchilarni matn ustida ishlashga o`rgatish;
- o`quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish⁷.

Bu vazifalar dasturda berilgan badiiy, ilmiy-ommabop asarlar, jumladan, xalq og`zaki ijodi namunalari asosida amalga oshiriladi.

O`qish darsliklariga xalq og`zaki ijodining ertak, masal, qo`shiq, maqol, topishmoq, tez aytish, ibora, lof kabi janrlari kiritilgan. Ular o`quvchilar bilimni boyitish, badiiy-estetik didini tarbiyalash imkoniyatiga ega.

⁷ K.Qosimova va b. Ona tili o`qitish metodikasi. –T.: Noshir. 2009. 70-bet.

Xalq ogʻzaki ijodini oʻrganish jarayonida nutq oʻstirish dastur va oʻqish darslari oldiga qoʻyilgan nutq oʻstirish vazifasini amalga oshirishi lozim.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (Soʻz, Soʻz birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq oʻzaro aloqa va xabar, oʻz fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga taʼsir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Oʻquvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli taʼlim olish qurolidir.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek oʻquvchilar nutqini oʻstirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab boʻlishi kerak. Oʻquvchilar nutqini oʻstirishning metodik talabi oʻquvchi oʻz fikrini, nimanidir ogʻzaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali boʻlishi lozim. Bu material qanchalik toʻliq, boy, qimmatli boʻlsa, uning bayoni shunchalik mazmunli boʻladi. SHunday ekan, oʻquvchilar nutqini oʻstirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida boʻlib, oʻquvchi nutqi mazmunli boʻlishi uchun gʻamxoʻrlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan Soʻz, Soʻz birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli boʻladi. SHuning uchun nutqni muvaffaqiyatli oʻstirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Oʻquvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan oʻz tajribasida foydalanish natijasida bolalarda taʼlim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda «tilni sezish» shakllanadi.

Nutq oʻstirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, yaʼni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, oʻrgangan til vositalaridan foydalanib, oʻz fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida oʻzlashtiradi. Buning oʻzi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki oʻzlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab o'quvchilarni adabiy tilni sodda So'zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, So'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan o'quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki-So'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: **1) So'z ustida ishlash; 2) So'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.**

So'z, So'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Biz xalq og'zaki ijodi asarlarini o'rganilishini maktablarda kuzatdik. Toshkent shahridagi 84-maktabda 1-4-sinflarda 1-2- toifadi o'qituvchilar darsini kuzatganimizda o'quvchilarning ertak, masal, topishmoq, tez aytish, loflarni qiziqish bilan o'rganishlarining guvohi bo'ldik. O'qituvchilar ertaklarni, badiiy matnlarni ifodali o'qib tanishtiryaptilar, ertak mazmuni yuzasidan savollar berib o'quvchilarga qayta hikoyalatyaptilar. Ertak qahramonlariga tavsif berildi. Ertakdan tarbiyaviy xulosa chiqarildi. Tarbiyaviy xulosa o'quvchilar hayoti bilan bog'landi. Yuular bir qarashda ertaklarni o'rganish qoniqarli ahvolda degan xulosaga kelishga asos bo'ladi. Lekin bular qayyo'sinda tashkil qilinyapti, bu ishlarga o'quvchilar qaytartibda tayyorlab olinyapti, fikrlashga undash, lug'ati va nutqi ustidagi ishlar samaralimi degan savollarga javob olishda biroz qiynaldik.

Ertakni o`quvchilarga o`qitishning o`zini olib ko`raylik. Ertak qismlari inobatga olinmay, o`quvchilarga ertak bir-ikki, ba`zan bir xatboshidan o`qitildi. O`quvchi voqealar bog`lanishini bu holda qanday bilib oladi.

O`quvchilar ifodali o`qishga asar tahlili jarayonida tayyorlanadi. O`qituvchilar ertak mazmuni yuzasidan savol berib, unga javob olib asarni tahlil qildik deb hisoblashyapti.

Ertakni qayta hikoyalatishdi, lekin o`quvchi nutqida ertakning jozibasi saqlandimi-yo`qmi, bunga e`tibor qaratmayaptilar.

O`quvchilarga ertakning nimasi yoqdi? degan savolni beryaptilar, lekin nima uchun yoqqanini so`ramaydilar.

Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o`qituvchilar xalq og`zaki ijodini o`tishda metodlarni to`g`ri qo`llay olmayaptilar, ish turlari to`g`ri tashkil etishda qiynalyaptilar. SHuning uchun o`quvchilarni ertak mazmunini o`z so`zlari bilan aytib beryaptilar, matnda qo`llangan badiiy til vositalaridan foydalana olmayaptilar.

Biz o`qituvchilar o`rtasida so`rovnoma o`tkazdik. So`rovnomada o`qituvchilarga:- Masal janrida qayta hikoyalashning qaysi turidan foydalanasiz? –degan savol bilan murojaat qildik. Ular masal janrini o`tish bilan ertak janrini o`rganishdagi farqliklarni ajrata bilmadilar.

Maqollarni maxsus dars ajratib o`rganishga qanday fikrdasiz? degan savolimizga “Maqollarni maxsus soat ajratib o`rganishdan ko`ra asarlarni o`rganishda ularning mazmuniga bog`lab o`rganish ma`qul” degan javobni berdilar. Ularning javobidan maqollar ham xalq og`zaki ijodining maxsus janri ekani, ular xalq tajribasi asosida yaratilgan hikmatlar ekanini, ularning mavzu doirasi borligi bu maxsus o`rganishni taqozo etishini anglab ololmaganlar deb o`yladik.

Xalq og`zaki ijodi asarlari matni ustida qanday tahlil ishlarini o`tkazasiz?-degan savolimizga umumiy yo`sindagi javobni berganlar. Ya`ni ertakni qismlarga ajratib qayta hikoya qildiramiz, tushunmagan so`zlarining ma`nosini tushuntiramiz, qahramonlarining yaxshi va yomon xususiyatlarini so`raymiz, tarbiyaviy xulosa chiqaramiz tarzida javob berishgan.

Ertak yuzasidan beradigan savollaringizdan namunalar keltiring, degan topshiriqni berdik. Ularning savollari asosan ertak mazmunini qayta hikoyalab berishga qaratilgan. O`quvchining fikrlashga, izlanishga undaydigan savollaridan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

-Halollik deganda nimani tushunasiz? (“Halollik” 3-sinf “O`qish kitobi”)

Yer sotib olgan dehqonning ishi to`g`ri deb hisoblaysizmi? Nima uchun? (“Halollik” 3-sinf “O`qish kitobi”)

Lekin bunday savollar juda kam tuzilgan. Vaholonki, boshlang`ich sinfda xalq og`zaki ijodini o`rganish bo`yicha metodik adabiyotlarda juda ko`plab metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ular mening nazarimda barcha o`qituvchilar qo`liga yetib bormagan yoki o`qituvchilar ulardan to`g`ri foydalanmayaptilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang`ich sinf o`qish darsliklariga kiritilgan xalq og`zaki ijodining o`ziga xos tomonlari haqida o`qituvchilar bilimi boyitib borilishi, xalq og`zaki ijodi namunalarining ishlanmalari hozirgi davr talablari asosida ishlab chiqilishi, o`qituvchilarga metodik tavsiyalar matbuot orqali ham berib borib borilishi zarur.

BIRINCHI BOB BO`YICHA XULOSALAR

1. Xalq og`zaki ijodiyotining namunalari bolaning aqliy va axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og`zaki ijodi janrlari mavzu va mazmuni bilan, tili va badiiy vositalari bilan, haytning ko`proq hayvonot olami bilan tasvirlashi bilan kichik yoshdagi o`quvchilar yoshiga va qiziqishiga mos ravishda nutqi o`stirib boriladi.

2. Boshlang`ich sinf o`qish darsliklariga kiritilgan xalq og`zaki ijodining o`ziga xos tomonlari haqida o`quvchilar bilimi boyitib borilishi, xalq og`zaki ijodi namunalarini o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirib boorish bo`yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.

3. Boshlang`ich sinf darsliklariga o`quvchilar yoshiga mos xalq og`zaki ijodi namunalari mavzular bo`yicha tanlab olingan, ko`proq tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan ertak, maqol, topishmoq, tez aytishlar berilgan. Bu adabiyotning tarbiyaviy

ahamiyatidan va kichik yoshdagi o`quvchilarda shakllantirish kerak bo`lgan nutq o`tirishdan kelib chiqqan holda ish turlari ishlab chiqilishi zarur.

4. Xalq og`zaki ijodi asarlarini o`rganish darslarida nutq o`stirishga qaratilgan ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabidir.

IKKINCHI BOB

Boshlang`ich sinf o`qish darslarida ertak va masallarni o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish usullari

2.1. Boshlang`ich sinf o`qish darslarida xalq ertaklarini o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish

Badiiy adabiyot, xususan, xalq og`zaki ijodi bolalarda go`zallikka muhabbat uyg`otadigan, poklik tuyg`ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o`tkirlashtiradigan, aqlni, fahm-farosatni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o`stiradigan omillardan eng muhimi sanaladi. U so`z orqali inson hissiyotiga ta`sirini o`tkazadi. Adabiy asarga kichik yoshdagi o`quvchilarni ona tilini puxta o`zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta`lim jarayonida ularni ahloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qoraladi. Badiiy adabiyotning ajralmas qismi bo`lgan xalq og`zaki ijodidagi ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o`qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta`sirchanligi, o`tkirligi, ma`nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko`pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo`shilib ketadi.

Ertakning o`tkir maroqli syujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g`oyaviy yo`nalishi, unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g`alaba qilishi bolalarni o`ziga tortadi. Bolalar beixtiyor ularning ketidan ergashadi.

Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so`z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta`sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko`pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo`lgan yovuz, baxil, ochko`z obrazlar bo`ladi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o`quvchilar unda to`g`rilik, halollik g`alaba qilganidan, kambag`al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya`ni

yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar. Masalan, «Halollik» ertagida (3-sinf) asosiy fikr kambag'allarga yordam ko'rsatish, o'z mehnati bilan hayot kechirish bo'lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, «Hiylagarning jazosi» ertagida (4-sinf) soddadilning to'g'riligi hiylagarning makri ustidan g'olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g'oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to'g'riso'zlilikning g'alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g'alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan.

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida *“Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)”, “Nima uchun?”, “CHaqimchi nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)”, “Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)”* kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar. SHu bois ham boshlang'ich sinfda o'qish darslaridagi barcha mavzularni yoritishda ertak janridagi asarlarga kata o'rin berilgan.

2-sinfda “Ertaklar yaxshilikka yetaklar” bo'limini noan'anaviy dars shaklida o'rganish. 2- sinf o'qish kitobida 11 ta mavzu berilgan ular: “Ona –yurtim oltin beshigim”, “Oltin kuz-hosilig yuz”, “Maktabim-qutluq makonim”, “Kitobim-oftobim”, “Mehnat baxt keltirar”, “Kumush qish-misoli oqqush”, “Otalar so'zi-aqilning ko'zi”, “Qushlar va hayvonlar bizning do'stimiz”, “Zumrad bahor-baxri diling ochar”, “Ertaklar-yaxshilikka yetaklar”, “Tabiatni asrang, avaylang”, “Yoz-o'tadi soz”. Ertak janridagi asarlar “Oltin kuz – hosiling yuz” bo'limida “Dehqonbobo”, “Mehnat-baxt keltirar”, “Aka – uka”, “Hunarli kishi xor bo'lmas”, “Kumush qish misoli oqqush”, “Cumoli bilan chigirtka”, “Otalar so'zi aqilning ko'zi”-“Dangasa o'g'il” (Qozoq xalq ertagi), “Oltin tarvuz”, “Yaxshilikka yomonlik”, “Zumrad bahor – baxri diling ochar”-“Nilufar”, “Shamol botir”, “Yoz- o'tadi soz” bo'limida “Erka chumolivoy” ertaklari berilgan. Bu ertakalar tojik, qozoq, hind xalqi ertaklaridir. 2- sinf o'qish kitobidagi

ertaklarni hayvonlar, daraxtlar haqidagi majoziy ertalarga sehirli ertaklarga (“Ur to`qmoq”), maishiy ertaklarga (“Oltin tarvuz”) ajratdik.

Xalq og`zaki ijodi janriga mansub bo`lgan bu ertaklar xalqimizning asirlar mobaynida orttirga boy hayotiy tajribasi, kuzatishlari, xulosalari asosida yaratilgan bo`lib, insonni ma`naviy barkamollik ahloqiy poklik, hushro`ylik va ziyraklik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

I.A.Karimov ham o`zining “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” asarida: “inson ma`naviy olamining yusalishi bilan bog`liq turli holatlar haqida ko`p gapirish mumkin. Lekin muxtasar qilib aytganda, Ollohning o`zi bizga buyurgan komil inson bo`lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi oliyjanob fazilatlarning ma`no-mazminini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo`lish, ularga amala qilib yashash-odamzotning ma`naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, hech qanday xato bo`lmaydi. O`ylaymanki bunday xulosani insoniyat o`z ongli xayoti davomida orzu qilib, intilib kelgan yuksak manaviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o`rinlidir,-degan gaplarni ertaklarni o`qib o`rganishgina emas, unda ilgari surilgan yuksak fazilatlarni o`quvchi shaxsida shakillantirish ertak o`qish darslarini asosiy vazifasi bo`lish kerakligini anglatib turibdi.

Insondagi fazilat va kamchiliklar ba`zi ertaklarda xayotdagi real qaxromonlar orqali ko`rsatilsa, ayrim ertaklarda hayvonlar, uy parrandalari misolida yoritiladi (“Maqtonchoq ayiq”) o`simlik va daraxtlar misolida (“Nima totli”), ko`ngilchan o`tinchi yoritiladi. Ertaklardagi sirli, sehirli voqealar ta`sviri o`quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo`lib asarning mazmun-moxiyatining o`zlashtirishiga imkon yaratadi.

Quyida dars tajriba-sinovdan o`tgan dars namunalarini keltiramiz:

Mavzu. Kumush qish.

O`quv material. Rangin qorlar (Olloyor).

Darsning maqsadi:

1. O`quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini boyitish.
2. Tabiatdan zavq olishga, unga zarar keltirmaslikka o`rgatish.
3. Ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o`stirish, xotirasini mustahkamlash.

4. O`qish ko`nikmalarini takomillashtirish, o`quvchilar lug`atini yangi so`zlar bilan boyitish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, ertak o`qish darsi.

Dars metodi: izohli o`qish, mustaqil ish metodi, guruhlarda ishlash.

Darsning jihozi: qog`oz, flomaster, yelim, qisqich, qaychi, mikrotestlar, akvarium, baliqlar, rag`batlantirish uchun jetonlar.

Sinf sharoiti. O`qituvchi turli usullar bilan o`quvchilarni guruhlarga ajratadi. Sinfdagi partalar doira shaklida qo`yib chiqiladi.

Tashkiliy qism. Sinf o`quvchilari guruhlarga bo`linib o`tiradilar. O`qituvchi guruhlar bilimi teng bo`lishi uchun qizil, ko`k, oq, yashil, sariq rangli doirachalardan foydalanishi mumkin. Bir xil rangdagi doira egalari bir guruhni tashkil etishi aytiladi. Har bir guruh o`ziga nom tanlaydi. Buning uchun o`quvchilarni darsga hozirlash, qiziqtirish, harakatga keltirish, mavzuni mustaqil anglab yetishlari uchun topishmoqlardan foydalanish lozim.

– ***Topishmoqning javobini toping:***

Elakdan un elandi

Supra unga belandi. (qor)

– Qor qaysi faslda yog`adi?

– O`ylang, bugun o`rganadigan yangi mavzu nima haqida ekan?

Xattaxtaga bo`lim nomi – «Kumush qish» yoziladi. So`ng guruhga qish fasli bilan bog`liq holda nom tanlashlari mustaqil ish qilib beriladi.

1-guruh «Qorparcha», 2-guruh «Ayozbobo», 3-guruh «Qorbobo», 4-guruh «Sumalak», 5-guruh «Qish» deb nomlanishi mumkin. Har bir guruh a`zolari o`zlariga sardor saylaydi.

DARSNING BORISHI:

I. CHaqiruv bosqichi. Guruhlar taqdimoti.

Bunda har bir guruh o`z nomining ma`nosini izohlaydi, nomini ifodalovchi rasm chizib ko`rsatishi ham mumkin.

1-guruh – «Qorparcha»: Men qish faslida dunyoga kelganman. Qir-adir, tog`u tosh, dala-dashtda uchib, o`ynoqlab yerga tomon intilaman. Hammayoqni oq choyshab

bilan o`rayman. Men yoqqanda bolalar, hatto kattalar ham qorbo`ron o`ynaydi, qorbobo yasashadi. Qorxat yozishadi.

2-guruh – «Ayozbobo»: Men issiq havoni sovutaman. Yerni, suvlarni muzlataman. Men tufayli yaxmalaklar paydo bo`ladi. Bolalar yaxmalakda chang`ida, chanada va konki uchadi. Tarnovlarda sumalaklar paydo bo`ladi.

3-guruh – «Qorbobo»: Men qish faslida bolalarning eng sevimli bobosiman. Uzoq-uzoq o`lkalardan ularga yangi yil bayrami sovg`alarini, qorqizimni olib kelaman. Ularning kuy-qo`shiqlari, o`yin-kulgilari jaranglagan bayramni birga nishonlayman. Men tufayli Ayozboboning izg`irin sovuqlarini sezmaydilar. Men ularga kuch-quvvat bag`ishlayman. Hammangizni yangi – qutlug` yilingiz bilan tabriklayman.

4-guruh – «Sumalak»: Men Ayozbobo bilan Qorparchalarning farzandiman. Tomlarning bo`g`otida qishning quyosh nurlarida yaltirab turaman. U yerdan bolalarning o`yin-kulgilarini tomosha qilaman. Borib bolalarga qo`shilib o`ynay olmaganimdan ko`zlarimdan chak-chak yoshim oqadi. SHu ko`z yoshlarim bilan yerning dardlariga malham bo`laman.

5-guruh – «Qish»: Yuqoridagi so`zga chiqqanlarning barchasi mening dilbandlarim. Ular tufayli men borman. Ular tufayli men yilning boshida turaman. Dekabr, yanvar, fevral oylari mening qo`ynimda yashaydi. Ularning har biriga yaxshi kunlarni – bayramlarni taqsimlab berganman.

8 dekabrda O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, 31 dekabrda Yangi yil bayrami nishonlanadi. 14-yanvar Harbiylar kunini bayram qilinadi. 9 fevralda ulug` bobomiz Mir Alisher Navoiyning, 14 fevralda Mirzo Boburning tavallud kuni nishonlanadi.

O`qituvchi o`quvchilarning javobini umumlashtirib, har bir guruhni rag`batlantiradi. SHu tarzda yangi bo`limni, asarni o`qishga tayyorgarlik davri yakunlanadi.

II. Anglash bosqichi. Bu bosqichda “Rangin qorlar” (Olloyor) ertagi (o`qituvchi qismlarga bo`lib kelgan bo`ladi)ning har bir qismi guruhdagi yaxshi o`qiydigan o`quvchilarga o`qitiladi. “Ifodali o`qish” musobaqasi uyushtiriladi. Eng yaxshi o`qigan o`quvchi aniqlanadi va rag`batlantiriladi.

SHundan so`ng guruhlarga asar matni ichda o`qishga topshiriladi. Guruh o`quvchilariga quyidagi topshiriq beriladi:

– Har bir guruh o`z qismini ichida o`qiydi. Uning mazmuniga va qahramonlariga doir savol-topshiriqlar tuzadi va konvertga solib uzatadi. Tuzilgan savollar izohlanib, rag`batlantirilib boriladi.

III. Fikrlash bosqichi. Bunda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. O`quvchilar o`zlari tuzgan savollarga javob beradilar:

- *Qadimda qorbo`ron qanday qorlar bilan o`ynalgan? Nima uchun?*
- *Bo`yoq bozori qancha yilda bir bo`lar ekan?*
- *Nega qorlar oq rangda yog`ar ekan?*
- *Bahoroy qaysi bo`yoqlarni xarid qilibdi?*
- *Kuz kelganda qozonlarda qaysi bo`yoqlar bor edi?*
- *Qish kelganda qozonda qaysi bo`yoq qolgan edi?*
- *Yoz uyqudan uyg`onib nimani o`ylab ketibdi?*
- *Yoz qaysi bo`yoqlarni olganini o`ylab toping.*
- *Kuz qaysi bo`yoqlarni o`chirib, uning o`rniga qaysi bo`yoqlarni surtib chiqdi?*
- *Qish o`z zahrini nimalarga sochadigan bo`lib qolibdi?*

2. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlanadi. Bularni barcha guruh bajaradi. Guruhning faol ishtirokiga qarab ball qo`yiladi.

3. O`qituvchi «Kumush qish» va o`qilgan asar yuzasidan tuzgan test topshiriqlarini guruhlariga tarqatadi.

4. Qish fasli bilan bog`liq maqol va topishmoqlar aytiladi:

Bahor, yoz, kuz qishlaydi, Qish paytida ishlaydi. (Pechka)

Qish yopingichingni qo`yma, Yoz o`zing bilasan. (Maqol)

5. O`qituvchi sardorlar uchun asar matni yuzasidan savol-topshiriqlar tuzib keladi. Bu savol-topshiriqlar konvertlarga solinib, guruhlariga beriladi.

1 – guruh uchun.

- *Ayozbobo deraza oynalariga qanday qilib naqshlar chizadi?*
- *“Qiyomiga kelib” birikmasining ma`nosini izohlab bering (ayni me`yoriga, maromiga yetgan holga kelgan).*

2 – guruh uchun.

– *Falak, libos so`zini qaysi so`zlar bilan almashtirish mumkin?* (falak – osmon gumbazi, osmon, ko`k; libos – kiyim, ust-bosh)

– *Bahoroyning gullari nomini sanab bering.*

3 – guruh uchun.

– *“SHitob” so`zining ma`nosini izohlang* (harakatning bajarilishidagi tezlik)

– *Saraton qaysi payt ekanini ayting.*

4 – guruh uchun.

– *Bahor tabiatida yuz beradigan hodisalarni ayting.*

– *Za`far, zarg`aldoq ranglar qanday rang? Ranglar ichidan olib ko`rsating.*
(zarg`aldoq – to`q sariq rang, za`far – sap-sariq, somon rang)

5 – guruh uchun.

– *Qish chillasi necha kun va unga qaysi vaqt kiradi?*

– *Ertakda badiiy vositalardan nima ko`proq qo`llanilgan?* (jonlantirish)

Darsni yakunlash va tarbiyaviy xulosa chiqarish. Bunda quyidagicha savollar beriladi:

– *Dars sizga yoqdimi? Nimasi yoqdi?*

– *Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz?*

– *Siz qishda tabiatni, tabiat ehsonlarini asrash uchun nimalar qilyapsiz?*

So`ngra o`quvchilarning umumiy ballarini e`lon qilinadi.

Uyga vazifa: ertak matnini ifodali qilib o`qishga, unga reja tuzib, shu reja asosida qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish.

Xulosa qilib aytganda, ertak o`rganish darslarida o`quvchilarning bilimini boyitish, o`qish ko`nikmalarini takomillashtirish, og`zaki nutqini o`stirish, shaxsini tarbiyalash, badiiy adabiyotga qiziqish uyg`otish muhim vazifalardan sanaladi.

I.2. Boshlang`ich sinf o`qish darslarida masallarni o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish usullari

Ma`lumki, tarbiya ko`proq ta`lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg`usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo`ladi va bu orqali o`quvchilar ma`naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik,

xayru ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g`urur, matonat, mehr-oqibat, do`stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo`ladi.

Jumladan, masal janridagi asarlar ham boladagi qo`pollik, qo`rslik, yolg`onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi. Lekin amaldagi boshlang`ich sinf “O`qish kitobi” darsliklarida masal janriga kam o`rin berilgan. Vaholanki, bola tarbiyasida masalning o`rni beqiyosdir. Masaldagi qissadan hissa o`quvchi matndagi e`tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o`qib o`tib ketgan, yaxshi anglashga harakat qilmagan o`rinni, bo`shliqni to`ldiradi.

3-sinf “O`qish kitobi”dan o`rin olgan “*Qaysar buzoqcha*” (O. Qo`chqorbekov) masali oilasi, o`rtoqlari, do`stlaridan ajralib, yomon yo`llarga kirib qolgan, oqibatda ko`ngilsiz holatlarga tushib qolgan bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ushbu masaldagi asosiy xulosa masal oxirida berilgan qissadan hissada, ya`ni ota-bobolarimiz yaratib, bizga nasihat sifatida qoldirgan “*Bo`linganni bo`ri yer*” hikmatida o`z ifodasini topgan. Bu hozirgi kunda maqol tusini olgan. SHoir esa bundan juda ustalik bilan foydalangan.

“*CHumoli va Tipratikan*” masali esa nasriy turga mansub bo`lib, unda CHumoli timsoli orqali bolalar halollikka o`rgatiladi, har bir narsani, u katta yoki kichik bo`lishidan qat`iy nazar, so`rab olishga, egasining ruxsati bilan foydalanishga da`vat etiladi. Masalni o`qishda bolalar Tipratikan timsoliga tanqidiy nazar bilan yondashadilar, agar o`zining hayotida biron-bir shunday holat-voqea yuz bersa, uni boshqa takrorlamaslikka o`rganadilar.

Masalning, avvalo, ixchamliligi, tilining qisqa va lo`ndaligi, soddaligi, o`tkirligi va xalqchilligi bola hissiyotiga qattiq ta`sir qiladi. Bular o`quvchilar nutqini o`stirishda ham muhim material hisoblanadi. Masal qahramonlarining xatti-harakatlari, fe`l-atvorlari, nutqiy o`ziga xosliklari o`quvchining diqqatini o`ziga jalb qiladi.

2-sinf “O`qish kitobi”da berilgan “O`roq va Kombayn” masalida o`roq va kombayn asar qahramonlari qilib olingan. Ularning munozarasi orqali texnikaning afzalligi: kam vaqt sarflab, samarali natijaga erishish mumkinligi hamda ularning ahil bo`lib, birgalikda mehnatga bel bog`lashlari kabi g`oyalar ilgari suriladi. Oddiy

predmetlar tilga kiradi. Insonlar tomonidan aytiladigan texnika va ish qurollari haqidagi gap-soʻzlar bevosita predmetlar tilidan beriladi.

3-sinf “Oʻqish kitobi”da “*Qaysar buzoqcha*” (O. Qoʻchqorbekov), “*CHumoli va Tipratikan*”, “*Oʻjar Toshbaqa*” (H. Yoqubov), “*CHayondan soʻradilar*” kabi masallar joy olgan. Bu masallarning qahramonlari ham hayvonlar: buzoqcha, chumoli, tipratikan, toshbaqa, chayon. Majoziy qahramonlarni tanlashda ham yozuvchi har bir hayvonning xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, buzoqchalar arqondan boʻshatib yuborilsa, shataloq otib, uzoq-uzoqlarga ketib qoladi. Qaysar buzoqcha ham toʻdasidan ajralib, boʻriga duch keladi, yaʼni koʻngilsiz voqea yuz beradi. Buzoqcha orqali onasidan uzoqlashib ketgan bolalar, vatanidan yiroqda turli kulfatlarga duch kelayotgan kishilar nazarda tutilgan.

“CHumoli va Tipratikan” masalidagi majoziy qahramonlar ham aslida jamiyatimiz aʼzolaridir. CHumoli hayotdagi halol, pok, toʻgʻrisoʻz insonlar boʻlsa, tipratikan oʻgʻri, qallob birovning ustidan kuladigan kishilardir.

“Oʻjar Toshbaqa” masalidagi Toshbaqa hayotdagi oʻjar, qaysar, oʻz bilganidan qolmaydigan, koʻngli tusaganini qiladiganlar timsolidir.

4-sinf «Oʻqish kitobi»da berilgan SH. Saʼdullaning “Laqma it” masalida it markaziy timsol sanaladi. Mushuk, sigir, xoʻroz, tovuq va kurkalar timsolini it birlashtirib turadi. SHuning oʻziyoq it xarakterini ochish uchun uning atrofidagi timsollarning xarakter-xususiyatini bilishni talab etadi.

Mushukning it haqidagi soʻzlarini matndan toptirib oʻqitish itning xususiyatini ochib beradi:

Ajab boʻldi uy qurmading.

Oʻz vaʼdangda sen turmading.

Yozi bilan laqillading.

Meni koʻrsang akillading.

Sigirning it haqidagi quyidagi soʻzlarini ham matndan topib oʻqitish orqali itning boshqa xususiyati ochiladi:

- Menga bundoq hiyla qilma

Sigirlarni axmoq bilma....

Uyda yotding oyoq cho`zib

Sog`in sutni hadeb buzib.

So`ng o`quvchilarga itga xos xususiyatlarni ochuvchi so`z va iboralarni toptirib aytiriladi. SHu tariqa o`quvchilar o`qituvchi yordamida itga tavsif beradilar. So`ng boshqa timsollar ustida ishlanadi. Bunda taqqoslash usulidan foydalaniladi. Mushukning yaxshi xislatlari sanaladi. Bu kabi tavsiflar sigir, xo`roz, tovuq, kurkalarga ham beriladi. Qahramonlarga tavsif berish matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. Yozuvchi foydalangan til vositasida o`quvchilar qahramonlarga tavsif berishga o`rganadilar, ularning tili ham yangi so`zlar bilan boyiydi. O`quvchilarni tavsif berishga o`rgatish uchun o`qituvchining o`zi qahramonni xarakterlovchi so`z, iboralarni tavsiya qiladi. Ular ichiga masaldagi timsollarga xos bo`lmagan xususiyatlarni ifodalovchi so`z, iboralar kiritib qo`yiladi. O`quvchi ular ichidan mosini tanlab olish jarayonida mantiqan fikrlaydi. Bu so`z va iboralar esa bolalar nutqiga ko`chadi.

4-sinf “O`qish kitobi”da berilgan “*Baqa bilan Taqa*” (Aziz Abdurazzoq) masalida baqa timsoli orqali yozuvchi o`ziga mos bo`lmagan, o`ziga to`g`ri kelmaydigan narsalarni orzu qilish va bu orzuni amalga oshirishda boshqalarning maslahati, nasihatiga quloq solmay, o`z aytganidan qaytmaydigan, o`jar kishilarni tanqid ostiga oladi. Baqa otlar kabi taqa bilan tovush chiqarib yurishni, yurganda yerni jaranglatib, odamlarga bu dunyoda o`zining borligini bildirib yashashni istaydi. U taqachining “*Taqani o`ylama, uni otga chiqargan, senga taqa qoqsam, sakrashdan mahrum bo`lasan ... Sen taqa bilan yo`rg`alay olmaysan. Yo`rg`alashni ham otga chiqargan*”, “*Sen borligingni bildirib yurmoqchi bo`lsang, sayrab yuraver*” deyishlariga quloq solmaydi. Bu o`jarlik uning boshiga kulfat keltiradi: suv tagiga cho`kib ketadi. Yonidagi baqalar bo`lmaganda halok bo`lishi ham tayin edi. Kech bo`lsa ham baqa xatosini anglab yetadi, taqachi oldida xijolat chekadi. Bu holatlar o`quvchini o`z hayotiga, xatti-harakatiga bir nazar tashlashga undaydi. Ular o`z tengqurlari kabi yashash kerakligini anglaydilar.

SHunday qilib, masal ustida ishlash quyidagi bosqichlarni o`z ichiga oladi:

– *masal mazmunini aniq idrok etish;*

– kompozitsiyasi, qatnashuvchilarning xarakteriga mos xususiyatlarini, xatti-harakatlarining sabablarini ochish;

– allegoriyani aniqlash;

– masal xulosasini tahlil qilish.

Mana shu izchillik hisobga olinsa, **masal o`qish darsining qurilishi quyidagicha bo`ladi:**

1. Tayyorgarlik ishlari:

a) masal muallifi haqida o`qituvchi hikoyasi;

b) o`qilgan masal mazmuni bilan bog`liq suhbat;

v) o`qilgan masalda qatnashuvchi timsollarga xos xususiyatlar haqida suhbat.

2. Masalni o`qituvchi o`qishi (*magnitafon yozuvini eshitish yoki film ko`rsatish ham mumkin*).

3. Masal matni ustida ishlash:

a) masalning tuzilishi va kompozitsiyasini aniqlash (o`qish, reja tuzish va hok.);

b) qatnashuvchilarning xatti-harakati, fe`l-atvori, xarakteriga xos xususiyatlarini tushuntirish (tanlab o`qish, so`z bilan va grafik tasvirlash, savollarga javob berish);

v) masalning aniq mazmunidan kelib chiqib, undagi asosiy fikrni belgilash;

g) krossvordlar, ta`limiy o`yinlar, topishmoqlardan foydalanib, masal mazmuni va g`oyasini o`zlashtirish.

4. Allegoriyani ochish.

5. Axloqiy xulosa aks ettirilgan qismni tahlil qilish.

6. Hayotda uchragan shunga o`xshash hodisalarga taqqoslash.

Quyida masal o`tish darsi namunasini keltiramiz:

Mavzu: Ahmoqning o`zi bilmas, Bilganning so`ziga kirmas

O`quv material: Qo`zichoq. (Rauf Tolib)

Dars shiori: Masallar – mag`zi asallar.

Dars rejasi: 1. “Sehrli ko`zacha” masali yuzasidan o`quvchilar bilimini aniqlash.

2. “Qo`zichoq” (Rauf Tolib) masali ustida ishlash.

3. Bliss texnologiyasi va “Topag`on” o`yini.

4. Darsni yakunlash.

Mavzuga doir tayanch tushunchalar: *Qo'zichoq, Ona qo'y, masal, burama shox, kekkaymoq, taltaymoq, og'zi qulog'iga yetmoq, bosar-tusarini bilmaslik, burni ko'tarilib, e'tiborini tortmoq, ko'zga surtmoq, ko'kka ko'tarmoq.*

Mavzuning qisqacha ta'rifi: Rauf Tolib bu masalida kekkaygan, taltaygan bolalarni qo'zichoq obrazi orqali tanqid ostiga olgan. Masalda o'zboshimchalikning, maqtanchoqlikning, kekkayishning yomon oqibatlari qo'zichoq obrazi orqali yoritib berilgan.

Darsning maqsadi: 1. Rauf Tolibning "Qo'zichoq" masali mazmuni bilan tanishtirish. O'quvchilarga masal janri haqida amaliy tushuncha berish. Insoniy fazilatlar haqidagi tushunchalarini boyitish.

2. Ularda kamtarinlik fazilatini shakllantirish. Kekkayishning, boshqalarga past nazar bilan qarashning yomon oqibatlarga olib kelishini, xalqimizning "Kamtarga kamol" hikmatining ma'nosini anglashlariga erishish.

3. O'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'atini boyitish, badiiy bog'lanishli nutqini o'stirish.

Metod: Izohli o'qish metodi, muammoli izlanish, interfaol metodlar, bahs-munozara.

Shakl: Jamoa bo'lib va guruhlarda ishlash.

Jihoz: Masal mazmuniga ishlangan rasmlar.

Kutilayotgan natija: Dars yakunida o'quvchilar kekkayish va mag'rurlikning, quruq maqtovlarga uchishning, boshqalarga past nazar bilan qarashning yomon oqibatlarga olib kelishini anglaydilar. O'qish ko'nikmalari takomillashadi.

Darsning borishi

I. Tashkily qism. (2-3- daqiqa) Guruhlarni shakllantirish.

II. O'tilgan mavzu ustida ishlash. (7-10 daqiqa)

1. "Sehrli ko'zacha" ertagini ifodali o'qish musobaqasi.

2. "Sehrli ko'zacha" ertagi yuzasidan suhbat. O'quvchilar chizib kelgan rasmlar namoyish qilinadi. Quyidagi savollar va o'quvchilar chizgan rasmlar asosida suhbat uyushtiriladi.

*“Sehrli ko`zacha” ertagidagi voqea qayerda yuz bergan? \*Nor nima uchun qattiq nola chekdi? \*Sehrli ko`zacha unga nima uchun himmat ko`rsatdi? \*Xol qanday nag`malar ko`rsatdi? Oqibatda qanday holat yuzaga keldi? *Kimga achindingiz? Nima uchun? *Ertakni kim yozgan? U haqida nimalar bilasiz?

3. Test yechish.

**4. Ertak g`oyasi ustida ishlash.** \*Ertakning 1-qismiga mos maqol ayting. \*Qanday odamlar elining dasturxonini to`kin bo`lishini istaydi? \*Ertakning 2-qismiga mos maqol ayting. \*Qanday odamlar faqat o`zini o`ylaydi? \*Siz qanday inson bo`lishni istaysiz? *Sizda siz istagan fazilatlardan qaysilari bor?

**O`qituvchi:** Elining yaxshi yashashi uchun mehnatini ayamaydigan odamlar xalqparvar odam bo`ladi. Buning uchun o`qigan asarlarimizdagi yaxshi fazilatlarni o`rganib, unga amal qilishingiz kerak.

III. Yangi mavzu ustida ishlash. (25-30 daqiqa)

1. O`quvchilarni Rauf Tolibning “Qo`zichoq” masalini o`qishga tayyorlash:

a) yozuvchi haqida suhbat:

- Siz shoir Rauf Tolib haqida nimalarni bilasiz?
- Rauf Tolibning qaysi she`rlarini o`qigansiz?

**b) masal haqida ma`lumot. Suhbat:** \*Siz shu darsgacha qaysi asarlarni o`qidingiz? *Hikoya bilan ertakning qanday farqi bor?

**O`qituvchi:** Siz kattalar va bolalarning hayotidan olib yozilgan hikoyalarni o`qigansiz. Ularda hayotda yuz bergan voqealar yoziladi. Ertaklar o`qigansiz. Ertaklarda kishilarning orzu-xayollari ifoda etiladi. Ular ro`yobga chiqishi ham, chiqmasligi ham mumkin. Masallarda esa odamlarga xos xususiyatlar hayvonlarga, o`simliklarga ko`chiriladi. Kishilardagi yaxshi va yomon xislatlar hayvonlar orqali ko`rsatiladi. Bugun siz bilan masal o`qiymiz. Bu masalda insonlarga xos qaysi xususiyat qaysi hayvonga ko`chirilganini o`zingiz bilib olasiz.

2. Masal bilan tanishtirish.

**3. O`quvchilarning dastlabki tushunchalarini aniqlash.** \*Masal nima haqida ekan? \*Masalda qaysi qahramonlar ishtirok etdi? \*Ona qo`y sizda qanday taassurot qoldirdi? *Sizga Qo`zichoqning qaysi xislatlari yoqmadi? Nima uchun?

4. Masalni qismlarga bo`lib o`qitish. Masal 3 qismga bo`lib o`qitiladi.

**5. Topshiriq bilan o`qitish. Topshiriq.** Masalni ichingizda o`qing. Matndan ma`nosini tushunmagan so`z va iboralarinigizni daftaringizga yozing.

So`z va iboralarning ma`nosini bilib oling.

Ko`zni qamashtirardi – ko`zga yaltirab ko`rinardi

antiqa- hayratga soladigan; yuqori navli qorako`l terining bir turi

bosar-tusarini bilmaslik – haddan tashqari mag`rurlanib ketish, nazar-pisand qilmaslik

burni ko`tarilmoq – gerdaymoq

ko`zga surtmoq – ortiq darajada qadrlamoq, e`zozlamoq

ko`kka ko`tarmoq – maqtamoq

6. Tanlab o`qish.

- Qo`zichoqning tashqi ko`rinishi tasvirlangan o`rinni topib o`qing. Qo`zichoqni yozuvchi qaysi so`zlar bilan tasvirlagan? Tarmoqlash usulida ko`rsating. (ko`zi munchoqday, yunglari jingalak-jingalak, yunglari quyosh nurida jimirlaydi, semizgina, chiroyli, shirintoy, antiqa, peshonasi do`ng, ikki ko`zi munchoq)

- Qo`zichoqni maqtashgan o`rinlarini topib o`qing. Qo`zichoqni boshqa qo`ylar nima deb maqtagan?

- Qo`zichoqning maqtovdan taltaygan holatlarini topib o`qing. Yozuvchi Qo`zichoqning taltayishi va kekayishini qaysi so`z va iboralar bilan ifodalagan?

- Ona Qo`yning Qo`zichoqqa qilgan nasihatleri berilgan o`rinni topib o`qing. Ona Qo`y Qo`zichoqqa qanday nasihat qilibdi?

7. Masalga reja tuzish. Topshiriq: *Masalning 1-qismini(2-,3-, 4-qismini) o`qing. Unga sarlavha toping. (Antiqa Qo`zichoq; 2- Kekaygan Qo`zichoq; 3- Ona Qo`y nasihati; 4- Bo`riga yem bo`lgan Qo`zichoq.)

Sarlavhalar doskaga reja shaklida yozib boriladi.

Reja:

1. Antiqa Qo`zichoq.

2. Kekaygan Qo`zichoq.

3. Ona Qo`y nasihati.

4. Bo`riga yem bo`lgan Qo`zichoq.

8. Asar qahramonlariga tavsif. Topshiriq. Qo`zichoq va ona Qo`yga tavsif bering. Bergan tavsifingizni asardan misollar keltirib dalillang. Namuna.

i	Qo`zichoq	Qo`y	O`quvchining xulosasi
	Kekkaygan	Kamtar	
	Burni ko`tarilgan	Mehribon	
	Tantiq	Nasihatgo`y	
	O`zini ko`z-ko`z qiladi	Bolasi uchun qayg`uradi	
	Boshqalarning e`tiborini tortib	Ehtiyotkor	
	maqtanadi	Tajribali	
	Bosar-tusarini bilmaydi		
	Quruq maqtovlarga taltayadi		
	Onasini o`ylamaydi		

9. Rollarga bo`lib o`qitish.

10. Reja asosida tayanch so`zlardan foydalanib qisqartirib qayta hikoylatish.

11. Tarbiyaviy xulosa chiqarish. *Yozuvchi Qo`zichoqning xatti-harakatlari orqali nima demoqchi? \*Sizda Qo`zichoqqa xos qanday xislatlar bor? *“Ahmoqning o`zi bilmas, Bilganning so`ziga kirmas. Ayrilganni ayiq yer, Bo`linganni bo`ri yer” maqollarining ma`nosini ayting. \*O`zingiz masal mazmuniga mos maqollardan ayting. (Ahmoqda “aql” ko`p. Ahmoqning shoxi bo`lmaydi. Ahmoq o`zini maqtar.0)

12. Bliss texnologiyasi.

Savol-topshiriqlar	Yakka javob	To`g`ri javob	Javoblar
1. Qo`zichoqning tasviri			1. Chiroyli, antiqa ajoyib
2. Qo`ylarning maqtovi			2. Kekkayma, birovlarining gap-so`zlariga quloq solma
3. Ona Qo`yning nasihati			3. Yomon ko`zlardan asrasin, bir balo orttirmasa go`rgaydi, bo`ri yo tulki ilib ketsa...
4. Ona Qo`yning xavotiri			4. Ko`zi munchoqday. Yunglari jingalak- jingalak

**13. “Topgan-topaloq” o`yini.** Biror belgi asosida savol beriladi. O`quvchilar shu belgini o`zida jam qilgan predmet nomini yozadilar.

- O`quvchilar nima o`qishdi? (Kitob, she`r, hikoya, ertak, tez aytish, maqol)

- O`rmonda nimalar yashaydi? (olmaxon, ayiq, bo`ri)

- Qo`rada, yaylovda nima boqiladi? (qo`y)

- Qo`ylar nimadan qo`riqlanadi? (bo`ridan)

IV. Darsni yakunlash. Darsda o`rganilganlar umumlashtirish, reyting ballarni e`lon qilish. Uyga vazifa. Masalni rollarga bo`lib o`qib kelish. Masal mazmuniga mos maqollar topib kelish.

Xulosa qilib aytganda, masal janrining tarbiyaviy tomoni ochilishda hayvonlar harakati, xulqi 2-sinfdan boshlab insonlarga ko`chiriladi. Bu jarayonda o`quvchilar fikrlashga undaladi.

2.3 Boshlang`ich sinf o`qish darslarida xalq topishmoqlarini o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish

O`zbek xalqi dono xalq. U o`z boshidan ko`p voqeyalarni o`tkazgan. Og`ir mehnati bilan oilasini boqqan. Mehnatini yengillatish, dam olishlarini ko`ngilli o`tkazish, bolalarini tarbiyalash maqsadida ertaklar, qo`shiqlar, topishmoqlar, maqollar yaratgan. Oilasi davrasida ularni aytgan. Ular og`izdan og`izga o`tib, xalq ichida tarqalgan, bizgacha yetib kelgan. Oldin kitob bosish bo`lmagan. Shuning uchun ular xalq og`zaki ijodi deyiladi. Hozir ularni to`plab kitob qilib, sizning o`qishingiz uchun davlatimiz g`amxo`rlik qilyapti. Demak, bu bo`limda – ”Xalq og`zaki ijodi” bo`limida xalqimiz yaratgan (yozuvchi, shoirlar emas) ertaklarni, qo`shiqlarni, maqollarni, topishmoqlarni, tez aytishlarni o`rganamiz.

Topishmoqlar azal-azaldan bolalarni atrofimizdagi olam, tabiatdagi narsa va hodisalar bilan tanishtiradi. Ular jumboq shaklida yaratilgani uchun fikrlashga o`rgatadi. Topishmoqlarda yashiringan narsalarning belgilari ifodalangan bo`ladi. Yozuvchilar ham topishmoqlar yaratishyapti. Ular ”Adabiy topishmoqlar” deyiladi.

Mavzu: Jumboqlar

O`quv mareiali: Topgan topaloq

**Ta`limiy:** Dono xalqimiz tomonidan yaratilgan topishmoqlarning inson aql-u sehnini o`tkirlashdagi ahamiyati, mavzu doirasi haqida ma`lumot berish. Tabiat, uy-ro`zg`or buyumlari, parrandalar, o`quv qurollari, meva-sabzavotlar haqidagi topishmoqlar bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: O`quvchilarda tabiatga, o`quv va mehnat quorollariga to`g`ri munosabatda bo`lish tarbiyasini tarkib toptirish.

Rivojlantiruvchi: Nutqlarini topishmoqlar bilan boyitish. Lug`atini *”qirq o`rim, ming kokil, farishta, motor, fazo”* so`zlari bilan boyitish. Topishmoqlarni topishda matndagi yashiringan narsaning belgisini ifodalovchi so`zlarga e`tibor berish ko`nikmasini shakllantirish. O`qish ko`nikmalarini takomillashtirish, xotirasini o`stirish.

Metod: Izohli o`qish metodi, izlanish, “Aqliy hujum” metodi, “Tarmoqlash”.

Shakl: Jamoa, guruh bilan ishlash.

Jihoz: Topishmoqlarning javobini ifodalovchi rasmlar, topishmoqli kartochkalar

Nazorat: O`quvchilarning bilimlari savol-javob, mustaqil ishlar orqali aniqlanadi, faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O`quvchilar reytingi dars oxirida e`lon qilinadi.

1-bosqich. Tashkiliy qism. (2-3- daqiqa)

2-bosqich. O`tilgan mavzu ustida ishlash. (7-10 daqiqa)

1.”So`z ko`rki - maqol” mavzui bahr-u bayt. Guruhlararo o`tkaziladi.

O`quvchilar yod bilgan maqollarini aytadilar. Har bir guruhdan 2-3- o`quvchi chiqadi. Ular *”Mehnat va mehnatsevalik”, ”Vatan va vatanparvarlik”, ”Til, nutq odobi”, ”odob-axloq”* mavzusida maqollar aytadilar. Qaysi guruh to`xtab qolsa, balla olmaydi. Ikkinchi mavzuga o`tiladi. O`quvchilar ham almashishi mumkin. yutqazad aytgan guruhga bir balla beriladi. Qaysi guruh topishmoq ayta olmasa, o`yinda mag`lub sanaladi.

2. Maqollar mavzusi va unga xos xususiyatlar yuzasidan suhbat. *Siz *”So`z ko`rki - maqol”* mavzui bahr-u baytida qaysi mavzulardagi maqollarni aytdingiz? (*”Mehnat va mehnatsevalik”, ”Vatan va vatanparvarlik”, ”Til, nutq odobi”, ”odob-axloq”* mavzusida.) * Maqollarda insonga qanday yordam bqradi? (Maqollar insonga yo`l ko`rsatadi. Qanday bo`lish kerakligini o`rgatadi. Maqollar yoshlarga pand-nasihat qiladi.) *Maqollar matni qanday yo`lda boladi? ( She`riy yo`lda bo`ladi.) *Darslikda qaysi mavzudagi maqollar berilgan? (Maqollarni oldin kim yaratgan? Shuning uchun

uni qanday nomladik? (Xalq yaratadi, xalq maqollari deyiladi.) *Hozir maqollar kimlar tomonidan yaratilyapti? (Xalq va yozuvchilar tomonidan yaratilmoqda.)

3. "To'g'ri izoh" o'yini. O'qituvchi maqol aytadi, o'quvchilar uning qanday pand-nasihat berayotganini aytadilar:

- Ota-onangni hurmat qilsang, Boshqalardan hurmat ko'rasan.
- Bola aziz, Odobi undan aziz.
- Sog' tinda – sog' lom aql.
- Do'stlik tanishlikdan boshlanadi.
- Bilimli o'zar, Bilimsiz to'zar.

O'qituvchi maqolning mavzusini aytadi, o'quvchilar unga mos maqol topib aytadi.

Masalan:

-Mehnatning foydasi haqida maqol ayting. Maktab, bilim, kitob haqida maqol ayting. (Mehnat qilsang – boylik, Turmushing ham chiroyli. Kitob bilim – manbai...)

Maqol mavzusi yuzasidan o'rganilganlar umumlashtiriladi va o'quvchilar rag'batlantiriladi.

3- bosqich. Yangi mavzu ustida ishlash. (28-30 daqiqa)

1. O'quvchilarni "Topgan topaloq" mavzusini o'rganishga tayyorlash.

a) "Topgan-topaloq" o'yini. O'qituvchi qo'ilga biror narsani yashiradi. Uni topgan o'quvchiga "besh" ball va'da qiladi. O'quvchilardan biri chiqib qaysi qo'lida ekanini topadi va shu narsa haqida topishmoq aytadi. 1- qo'l ko'targan o'quvchi javobini aytadi. Necha daqiqada topgani e'lon qilinadi. Zehni o'tkirligi qayd etiladi;

b) aqliy hujum. Topishmoq nima? "Topgan-topaloq" o'yining inson uchun ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati bormi?

O'quvchilar javobi doskaga yozib boriladi: -Topishmoq yashiringan narsani topish;-Narsalarining belgi-xususiyatlarini bilib oladi; - Aqli o'sadi. - Xotirani o'stiradi.

d) topishmoq haqida suhbat. *Topishmoqlarni kimlar yaratgan? (Xalq yaratgan) *Topishmoqlar nima maqsadda yaratilgan? (Bo'sh vaqtlarni ko'ngolli, qiziqarli o'tkazish uchun, bolalarning aqlini o'stirish uchun, xotirasini kuchaytirish uchun..., bolalarni tarbiyalash, yaxshi ishlarga undash uchun yaratilgan) *Topishmoqlar qaysi

paytlarda aytilgan? (Oilada og`ir mehnatdan so`ng hordiq chiqarilayotganda, bolalarini uxlatish paytida) *Topishmoqlarning tuzilishi nimaga o`xshaydi? (she`rlarga o`xshaydi. Misralar oxirida ohangdosh so`zlar bo`ladi.) *Eshitgan topishmoqlaringiz nimalar haqida edi? (Hayvonlar haqida, mevalar haqida)

**O`qituvchi:** Topishmoqlar azal-azaldan bolalarni atrofimizdagi olam, tabiatdagi narsa va hodisalar bilan tanishtiradi. Ular jumboq shaklida yaratilgani uchun fikrlashga o`rgatadi. Topishmoqlarda yashiringan narsalarning belgilari ifodalangan bo`ladi. Yozuvchilar ham topishmoqlar yaratishyapti. Ular "Adabiy topishmoqlar" deyiladi.

e) aqliy hujum. Nima uchun mavzuimiz "Topgan-topaloq" deb nomlangan? Topishmoqni topgan odamga nima va`da qilingan?

2. Darslikdagi topishmoqlar bilan tanishtirish. O`quvchilarning o`zlariga o`qitiladi. Bir o`quvchi o`qiydi, boshqa o`quvchi javobini topadi.

3. Topishmoq matni ustida ishlash.

- "Kamalak" ekanini topishda sizga matndagi qaysi so`zlar yordam berdi?
- "Yasan-tusan, Hasan-Husan" deganda nima nazarda tutilgan?
- "Kapalak" ekanini topishda sizga matndagi qaysi so`zlar yordam berdi?...
- Topishmoqlarni topish jarayonida siz qaysi so`zlarni o`z so`zlaringizga aylantirib oldingiz? Shu so`zlarni daftaringizga yozib oling.

4. Topishmoqlarni yoddan aytish. Topshiriq. Kim darslikdagi topishmoqlarni yaddan aytib bera oladi. Qaysi o`quvchi ko`p aytsa, shu g`olib sanaladi. Topishmoqni yoddan aytish jarayonida "Tayanch so`zlar" doskaga ilib qo`yiladi.

5. Topishmoq aytish musobaqasi. Topshiriq.

- Uy-ro`zg`or buyumlari haqida topishmoq ayting.
- O`quv qurollari haqida topishmoq ayting.
- Hayvonlar, parrandalar haqida topishmoq ayting...

6. "Adabiy topishmoqlar" ustida ishlash.

- Muhiddin Oston yozgan topishmoqlarni o`qing.
- Bu topishmoqlar nima uchun "Adabiy topishmoqlar" deb nomlangan? (Yozuvchi, shoirlar yzgan topishmoqlar "Adabiy topishmoqlar" deyiladi. O`quvchilar taxmin qilib

ayta olmasligi mumkin. Shu savol o`rtaga tshlanib, so`ng o`qituvchining o`zi javob beradi.)

-Shoir yaratgan topishmoqlar nima haqida ekan? Uni qanday topdingiz? (O`quv qurolo qalam haqida. Uni topishda "qora tosh, yog `ochdandir ustibosh, tig ` bilan qirtishlasang" so`z va iboralariga e`tibor qaratib topdim)

-Ikkinchi topishmoq nima haqida ekan? Uni qanday topdingiz? (Cho`l hayvoni tuyay haqida. Uni topishda " Karvon, sardoriman, suvsizlik pisand emas, yantoqni suyaman" so`zlariga e`tibor berdim.)

- Muhiddin Oston haqida nimalar bilasiz?

7. Topishmoqlarning mavzu doirasini tarmoqlarda ifodalang

8. Mustaqil ish. Topshiriq. Topishmoqni davom ettiring va javobini toping.
Namuna.

-Erta turadi, _____. (jar chaqiradi) (Xo`roz)

-Beli qilday, _____. (boshi xumday) (Chumoli)

-Pishirsa, osh bo`lur, pishirmasa \_\_\_\_\_ bo`lur. (qush) (Tuxum)

-O`zi bitta, \_\_\_\_\_ to`rtta. (qulog `i) (Qozon)

-Bir chuqurda mimg chuqur, Chuqurni _____ cho`qir. (igna) (Angishvona)...

Topgan o`quvchilar rag `batlantiriladi.

9. Aqliy hujum. Maqol va topishmoqlarning farqi nimada? **O`qituvchi quyidagicha umumlashtirib to`ldiradi:** Maqollarda hayotdan chiqarilgan tarbiyaviy xulosalar ifodalanadi. Topishmoqlarda esa hayot va tabiatdagi narsa va hodisalar jumboqli tarzda beriladi. Ular ixcham shaklidaligi, she`riy yo`lda yaratilgani bilan bir-biriga o`xshaydi. Ikkalasi ham tinglovchini fikrlashga undaydi.

10. "Topgan-topaloq" mavzusi yuzasidan tarbiyaviy xulosa chiqarish.
*Topishmoq topishda sizga nimalar yordam berdi? *Topishmoqlarni o`rganish darsida o`zingizda qanday o`zgarishlarni sezdingiz? (Lug`atim boyidi, nutqim o`sdi, o`qish ko`nikmam takomillashdi, xotiram, zehnim o`sdi...) *Siz topishmoq ijod qila olasizmi? Uyda bunga harakat qilib ko`ring.

4-bosqich. Darsni yakunlash. (2-3 daqiqa) Darsda o`rganilganlarni umumlashtirish. *Bugungi darsda nimalarni bilib oldingiz? *Adabiy topishmoqlar

deganda qaysi topishmoqlarni tushunasiz? *Kimning topishmoqlari bilan tanishdingiz?
*Topishmoqlar sizga yoqdimi? Nimasi yoqdi?

2. Uy vazifasi. Topishmoqlarni yod olish. “Topgan-topaloq” bellashuviga tayyorlanib kelish. Foydalanish uchun qo`shimcha adabiyot: ”Gulgina”, kichkintoylar uchun. 1-jild.126-161-betlar; 232-244-betlar; 203-291-betlar; 2-jild. 41-150-betlar; 284-371-betlar. Toshkent, ”Yangi nashr” nashriyoti, 2010.

3. O`quvchilarning reyting ballarini e`lon qilish.

2. 4.Boshlang`ich sinf o`qish darslarida xalq qo`shiqlarini o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish

Qadimda odamlar og`ir mehnatdan charchagan paytlarida yoki mehnatlarini yengillashtirish uchun, quvongan yoki g`amgin vaqtlarida qo`shiq aytishgan. Bolalar esa o`yin o`ynagan vaqtlarida, bayram sayllarida qo`shiq kuylashgan. Bu qo`shiqlar bugungi kunlarda ham kuylanib kelinmoqda. Qo`shiqlarni xalq o`zi ijod qilgan, o`zi kuyga solgan.

Mavzu: Odam ko`rsang izzat qil

O`quv material: Yomg`ir yorug`kuning bo`ladi

**Ta`limiy:** O`quvchilarni “Yomg`ir yorug`kuning bo`ladi” qo`shig`i mazmuni bilan tanishtirish. Qo`shiqlar kishilarga ma`naviy ozuqa bo`lishini, dam olishning mazmunli o`tishiga ko`maklashishini, qo`shiqlar xalq tarixini o`rganishda manba bo`lishinitushuntirish. Xalq qo`shiqlarining mavzusi va mazmuni haqida elementar amaliy ma`lumot berish.

Tarbiyaviy: “Yomg`ir yorug`kuning bo`ladi” qo`shig`i mazmuni asosida tabiat hodisalari, ularning xosiyatlarini qadrlash, mehr-oqibatli bo`lish ruhida tarbiyalash. Estetik didni oshirish. Qo`shiqdan ma`naviy ozuqa olishga o`rgatish. Qo`shiq aytish va uni eshitish ko`nikma va malakalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarning o`qish ko`nikmalarini takomillashtirish, lug`atini “qavm`, yorug`kun”, “chuchmomo”, “nurafshon”, “balqimoq” so`zlarining ma`nolari ustida ishlash orqali boyitish, badiiy nutqini o`stirish.

Metod: Izohli o`qish metodi, izlanish, “Aqliy hujum”, “Tarmoqlash” metodlari

Shakl: Jamoa bo`lib ishlash.

Jihoz: Qo`shiq mazmuniga mos rasm, vatman, flomaster, turli so`zana va dorpech, gulpechlar.

Nazorat: O`quvchilarning bilimlari savol-javob, mustaqil ishlar orqali aniqlanadi, faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: O`quvchilar reytingi dars oxirida e`lon qilinadi.

Darsning borishi

I. Tashkily qism. O`quvchilarning darsga hozirligi aniqlash.

**II. O`quvchilarni qo`shiqni o`qishga tayyorlash.** O`qituvchi: *Biz siz bilan qaysi mavzudagi bo`limni o`rganib bo`ldik? \*Bugun qaysi mavzudagi bo`limni o`rganar ekanmiz? O`quvchilar bu savolga oson javob topishlari uchun magnitafondan qo`shiq eshittiriladi. O`quvchilar bilgan qo`shiqlar aytiriladi. O`qituvchi ham qo`shiq kuylab beradi.

3. Dars shiori aniqlanadi: Olam qo`shiqqa to`lsin, Odamlar o`ynab kulsin.

Aqliy hujum. Darsga nima uchun bu shiorni tanladik?

O`qituvchi shiorni doskaga yozib, qo`shiq aytayotgan bolalar tasviri tushirilgan plakatni ilib qo`yadi. Savol-javobda o`quvchilar fikrini to`ldirib, izohlab boradi.

*Plakatda kimlar tasvirlangan? (Qo`shiq kuylayotgan bolalar tasvirlangan.)
*Ularning yuzidan qanday kayfiyatda ekanliklari bilinib turibdi? (Bolalarning shodligi, baxtiyorligi bilinib turibdi.) * Xulosa chiqaring. Bolalar qo`shiq kuylashsa nima qilishadi? (Xursand bo`lishadi, o`ynab-kulishadi, hayotlaridan mamnun bo`lishadi.)
*Bolalar kulsa nima kuladi? (Dunyo kuladi – ota-onalari, do`stlari, butun ona xalqi xursand bo`ladi.) *Shuning uchun nima der ekanmiz? (O`qituvchi doskadagi jumlagi ishora qiladi. O`quvchilar “ Olam qo`shiqqa to`lsin, Odamlar o`ynab kulsin” javobini baralla aytishadi.)

**O`qituvchi:** Demak, olamni qo`shiqqa to`ldirib kuylash uchun biz qo`shiqlarni bilishimiz, hayotda yaxshi kunlarga intilib yashashimiz kerak.

4. Qo`shiqlar haqida suhbat. *Biz magnitafondan nimalarni eshitdik?
*Qo`shiqlar she`rlardan nimasi bilan farq qiladi? (Qo`shiqlar kuyga solib aytiladi.)
*Eshitgan qo`shg`imiz nima haqida edi? *Siz 1- sinfada qaysi qo`shiqlarni o`qigansiz?

U nima haqida edi? ("Laylak keldi – yoz bo'ldi". Laylak haqida edi. U nog 'orachi, ekanini, qizlarga boshchi ekanini aytadi. Laylak bahorda uchub keladi.) *O'ylang, qo'shiqlar qaysi mavzularda bo'lar ekan? (Bolani uxlatishda aytiladigan "Alla", fasllar haqida, mehnat haqida bo'ladi) O'quvchilar javob topishlari uchun o'qituvchi qo'shiqlar aytadi, bolalar mavzusini topadi. Masalan:

Onajonisining gulbog 'i, alla,
Erkatoyginam, alla.
Otajonisining zo'r tog 'i, alla,
Yop-yoruf yoginam, alla.

5. Aqliy hujum. O'ylang, odamlar qachon qo'shiq eshitgisi, qo'shiq kuylagisi keladi?

O'quvchilar javobi tarmoqlash usulida doskaga yozib boriladi:

- *Dam olganda;* - *Charchog 'ini chiqarishda;* - *Quvonganda;* - *Xafa bo'lganda;* - *Boshiga g'am-tashvish tushganda;* - *Xushxabar eshitganda;* - *O'ynaganda;* - *Do'stlari davrasida;* - *Bayramlarda...*

O'qituvchi bayoni: Qadimda odamlar og 'ir mehnatdan charchagan paytlarida yoki mehnatlarini yengillashtirish uchun, quvongan yoki g'amgin vaqtlarida qo'shiq aytishgan. Bolalar esa o'yin o'ynagan vaqtlarida, bayram sayllarida qo'shiq kuylashgan. Bu qo'shiqlar bugungi kunlarda ham kuylanib kelinmoqda. Qo'shiqlarni xalq o'zi ijod qilgan, o'zi kuyga solgan.

Darsimizda xalqimiz ijod qilgan, og 'izdan og 'izga o'tib, bizgacha yetib kelgan qo'shiqlardan birini o'qib o'rganamiz.

II. Qo'shiq bilan tanishtirish. Dastlab qo'shiqni o'qituvchining o'zi yod aytib beradi.

1. O'quvchilarning qo'shiq haqidagi dastlabki taassurotlarini aniqlash. Savollarga javoblar o'qituvchi rahbarligida topiladi.

*Qo'shiq sizga yoqdimi? * Nima uchun qo'shiq "Yomg 'ir qutlug ' kuning bo'ladi" deb nomlangan? *She'r sarlavhasida nima uchun boshqa tabiat hodisalari emasi, "yomg 'ir" so'zi qo'llangan? (Yong 'ir hayot uchun eng zarur tabiiy

hodisalardan bo'lgani uchun). *Bu qo'shiq kimning tilidan aytilgan? Kimlarga qarata aytilgan? Nima uchun?

2. Qo'shiqni bandlarga bo'lib o'qitish. Qo'shiq to'rt qator, bir o'quvchilarga o'qitiladi.

3. Lug'at ishi.

4. Qo'shiqni ifodali o'qish musobaqasi.

5. Aqliy hujum. O'ylang. Bu qo'shiqni qachon ijro etishgan?

O'quvchilar javoblari doskaga yozib boriladi. To'g'ri javobni o'quvchilar qo'shiq tahlili jarayonida o'zlari bilib oladilar: *o'yin paytida; bayramlarda; bahor faslida; ...*

6. Qo'shiq matni ustida ishlash. Topshiriqlar:

- Qo'shiq matni necha banddan iborat?
- Har bir band necha misradan tashkil topgan?
- She'r matnida qaysi so'z takrorlanib kelgan? (bo'ladi)
- Matndagi ohangdosh - qofiyadosh so'zlarni aniqlang. (*bobong, kuning, chuchmomong, noning,..*)

- "Oftob ko'rsang, hayiqma, Nurafshoning bo'ladi" misralarida nima nazarda tutilgan? (Bu misrada yo'lingni yorituvchi, hayotingni chag'on qiluvchi oftobdan hayiqmaslik orqali bola qalbiga mardlik, jasurlik tuyg'usini singdirish nazarda tutilgan)

7. Qo'shiqdan tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- "Yomg'ir yorug' kuning bo'ladi", "Odam ko'rsang, izzat qil, Odam qavming bo'ladi" misralarida nima nazarda tutilgan?

- Tabiatdagi jamiki mavjudot: dov-daraxtlar, maysa-giyohlar, parranda-darrandalardan tortib, shamol-u bo'ronlargacha inson hayotining umrboqiyiligini, hayotning abadiyligini esga solib turadi. Jumladan mazkur qo'shiqda shasmol, yomg'ir, oy, oftob, bug'doy, olov, osmon, yer, tog' haqida odamlarga murojaat qilish vositasida ona-tabiatning hayot manbai ekanligini, inson umrining tabiat bilan chambarchas bog'liq ekankigini yoritish orqali tabiatga ongli munosabatda bo'lishga undalgan.

**8.Qo`shiq kuylash va tez aytish musobaqasi. 1-topshiriq.** Sizlar qanday qo`shiqlarni bilasiz? O`yin jarayonida kuylanadigan qo`shiqlardan ayting.

2-topshiriq. -Oz`ingiz yod olgan maqollardan ayting.

3-topshiriq. -Topishmoq yating, o`rtoqlaringiz topsin.

4-topshiriq. Tez ayting. Gulhida guldor ko`ylagining gulini sanadi.

**IV. Darsni yakunlash. 1. Darsda o`rganilganlarni umumlashtirish.** \*Darsda nimalarni bilib oldingiz? \*Bugungi dars sizga yoqdimi? Nimasi yoqdi? \*Qo`shiqlarni oldin kimlar yaratgan ekan? Hozir-chi? *Xalqimiz yana nimalar yaratishgan? (Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar) *Siz 1-2-sinflarda qaysi ertaklarni o`qigansiz? Keyingi darsda gapirib berishga tayyorlanib keling. \*Bugun o`rgangan bo`limingiz nima deb nomlangan? Nima uchun?

2.Uyga vazifa: “Yomg`ir yorug` kunning bo`ladi” qo`shig`ini ifodali yod olish. Xalq qo`shiqlaridan o`rganib kelish. Foydalanish uchun adabiyot: ”Gulgina”, kichkintoylar uchun. 1-jild.10-25-betlar; 38-52-betlar; 108-121-betlar; 232-244-betlar. 2-jild. 10-31-betlat; 244-263-betlar. Toshkent, ”Yangi nashr” nashriyoti, 2010.

3. O`quvchilarning reyting ballarini e`lon qilish.

Izoh: “Qurbaqa” qo`shig`i ham oldingi dars kabi tashkil qilinadi

2. 5. Boshlang`ich sinf o`qish darslarida xalq maqollarini o`rganish jarayonida o`quvchilar nutqini o`stirish

Boshlang`ich sinf o`quvchilari o`zbek xalqi – o`zining ota-bobolari tomonidan yaratilgan maqollarni o`qib, ularning donishmandligidan voqif bo`ladilar. Maqollar ma`nosi ustida ishlash, ularni hayot bilan bog`lash natijasida axloqiy sifatlarni: vatanparvarlik, mehnatsevarlik, bilim olish va hunar o`rganish orqali vatan taraqqiyotiga hissa qo`shish, nutq madaniyatiga rioya qilish fazilatlarini egallaydilar. O`qish ko`nikmalari takomillashadi. Xalqi bilan faxrlanish tuyg`usi o`sadi. Quyida maqol o`tish darsi namunasini keltiraman:

Mavzu. Soʻz koʻrki – maqol

Darsning maqsadi.

Taʼlimiy: Dono xalqimiz tomonidan yaratilgan hikmatlarning inson kamolotidagi xizmatini oʻquvchilarga yerkazish. Maqollarning mavzusi, ... haqida maʼlumot berish.

Tarbiyaviy: Oʻquvchilarda Vatanni qadrlash va vatanparvarlik tuygʻusini; til odobi, nutq madaniyatini egallashga, ilm olishga havas uygʻotish. Mehnatsevarlik yaxshi turmush garovi ekanini anglashlariga erishish.

Rivojlantiruvchi: Nutqlarini maqollar bilan boyitish. Maqollar maʼnosini oʻz soʻzlari bilan, oʻqigan asarlari, koʻrgan-kuzatganlari asosida izohlash koʻnikmalarini oʻstirish.

Metod: Izohli oʻqish metodi, izlanish, “Aqliy hujum” metodi, “Tarmoqlash”.

Shakl: Jamoa, guruh bilan ishlash.

Jihoz: Maqollar yozilgan plakat

Nazorat: Oʻquvchilarning bilimlari savol-javob, mustaqil ishlar orqali aniqlanadi, faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: Oʻquvchilar reytingi dars oxirida eʼlon qilinadi.

Darsning borishi. Dars bosqichli izchillik tamoyili asosida 4 bosqichda tashkil qilinadi.

1- bosqich. Tashkiliy qism. (2-3 daqiqa)

2- bosqich. Oʻtilgan mavzu ustida ishlash. (7-10 daqiqa)

1. Xalq qoʻshiqlarini yod aytirish. (“Yomgʻir yorugʻ kuning boʻladi”, “Qurbaqa”, “Alla”, “Qaldirgʻ och” va hokazolar) Xalq qoʻshiqlaridan namunalar:

Qaldirgʻ och gʻ och-gʻ och,

Eshigingni och-och.

Eshigingni ochmasang,

Pista-bodom sochmasang,

Osh-qatigʻ ing icharman,

Choʻlga qarab qocharman.

Laylak keldi, ilon, qoch,

Bola-chaqang olib qoch.

Yangi toʻning kiyib qoch,

Eski toʻning tashlab qoch.

2. “Qurbaqa” qoʻshigʻini ifodali yod aytish musobaqasi.

3. “Qurbaqa” qoʻshigʻi matni yuzasidan suhbat. *Qurbaqa bilan kim suhbatlashdi? *U qurbaqadan nimalar haqida soʻradi? *Nima uchun oyigʻi, koʻzi haqida soʻradi? *Qurbaqa nima deb javob berdi? *Siz nima deb oʻylaysiz? Qurbaqa savollarga toʻgʻri javob berdimi? *Siz qanday xulosaga keldingiz? (Oyoqyalang yurish oyoqning besoʻnaqay oʻsishiga olib keladi. Koʻzni avaylash kerak. Shunda koʻzoynakkar ehtiyoj boʻlmaydi.)

4. “Qurbaqa” qoʻshigʻini rollarga boʻlib oʻqitish.

5. “Kim tez va toʻgʻri joylashtiradi?” oʻyini . Topshiriq. Qoʻshiq bandlarini tartib bilan joylashtiring. (Vaqt 1 daqiqa.) Guruhlarga kartochkalarga ikki qatordan qilib yozilgan qoʻshiqni beradi. Kim birinchi tartiblashtirib, oʻqib bersa shu gʻolib boʻladi.

O`tilgan mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimiga munosabat bildiriladi.

3-bosqich."Maqollar" mavzusi ustida ishlash. (25-30 daqiqa)

1.O`quvchilarni maqollarni o`rganishga tayyorlash. O`qituvchi maqol aytadi va bu maqol qaysi o`qilgan asar mazmuniga, g`oyasiga mosligini o`quvchilar topadilar.

Masalan:

-Bulbul chamanin sevar, Odam Vatanin sevar. ("Kichik Vatan" Ashurali Jo`rayevning hikoyasi mazmuniga mos.)

-Yurt qo`rising o`zarsan, Qo`rimasang to`zarsan. ("Dahshatli Meshpolvon" asari mazmuniga mos.)

2. Krossvord yachish. Krossvordni yechsangiz, bugun o`rganadigan mavzu nomi chiqadi.

1. S	A	B	Z	I	///
2.	R	O	11.	////	///
O`			Q		
3. Z	I	R	A	7. K	////
4.K	5.	6. R	P	10.A	////
	O`				
O`	R	I	K	////	///
R	O`	9.M	12.O	13.L	///
K	O`	P	R	I	K
8. I	T	///	///	///	///

1.Yer ostida oltin qoziq. (Sabzi) 2. Mehnat quroli (O`roq) 3. Xotin-qizlar taqinchog`i (Zirak) 4.Kunduzi yig`iladi. Kechasi yoyiladi. (Ko`rpa) 5. Sariqligi zar dedim, Totib asal-qand dedim.(O`rik) 6. Xotin-qizlar o`raydigan bosh kiyim. (Ro`mol) 7.Ular ikki qirg`oqni, Yaqin qilar yiroqni.(Ko`prik) 8.Vov-vov deydi, baqiradi, Tug`ishganin chaqiradi. (It) **Kalit so`z:** So`z ko`rki – maqol.

**3. Maqollar va ularning kelib chiqishi haqida ma`lumot berish.**O`quvchilar bilgan maqollar aytiriladi. Ularning ma`nosi izohlatiladi.

Aqliy hujum. Maqollar nima maqsadda yaratilgan deb o`ylaysiz? Maqollarni hamma ham yarata oladimi?

**O`qituvchi:** Maqollar xalqimiz tomonidan hayot tajribalari asosida yaratilgan. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan kichik asar. Maqollar ko`proq she`riy shaklda yaratilgan. Qofiyadosh so`zlar ishlatilgani uchun eslab qolish qulay.

4. Darslikdagi maqollarni o`quvchilarning o`zlariga o`qitiladi va suhbat o`tkaziladi. *Maqollar qaysi mavzularda bo`lae ekan? \*Vatan haqidagi maqollarni o`qing. *Siz Vatan haqida qaysi maqollarni bilasiz? *Til odobi haqidagi maqollarni o`qing. \*Bilim olish haqidagi maqollarni o`qing. *Hunar haqidagi maqollarni o`qing. \*Odob haqidagi maqollarni o`qing. *Darslikda qaysi mavzulardagi maqollar berilgan ekan? *Nima uchun "So`z ko`rki – maqol" deyiladi?

5. Maqollarning mavzusini tarmoqlarda ifodalang. (Vatan, mehnat, bilim, ...)

6. Maqollar mazmuni, g`oyasi ustida ishlash.** Darslikdagi maqollar mazmuniga mos hikoyalar, ertaklar toptiriladi, aytib beriladi. Masalan:"Vatanning qadrini bilmagan O`z qadrini bilmas" maqoliga "dahshatli Meshpolvon" asari keltiriladi. **Xulosa chiqariladi: Maqollar ham bir asar mazmuniga teng bo`ladi.

7. "Maqolni davom ettir" o'yini.

Vatanning qadrini bilmagan, ____ ____ _____. (O'z qadrini bilmas.)

Odobning boshi _____,

Odobli o'g'il – ko'kdagi yulduz, ____ ____ _____. (Odobli qiz – yoqadagi qunduz.)

O'yin shu tarzda davom ettiriladi. Bu o'yin o'quvchilarning maqollarni tez yod olishlaiga yordam beradi.

8. Amir Temur, Alisher Navoiyning hikmatlaridan aytish. Ularning bu hikmatlari maqollar darajasiga ko'tarilganini qayd etish.

9. Vaqtga qarab "Kim ko'p maqol aytadi?" tez aytish musobaqasi.

4-bosqich. Darsni yakunlash.(2-3 daqiqa) 1. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish. *Maqollarni kim yaratgan ekan? (Maqollarni dono xalqimiz yaratgan. Ularda katta ma'no bor. Ba'zan yozuvchilar, olimlarning ayrim gaplari maqollarga aylanib ketishi mumkin. Masalan, Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. Oz-oz o'rganib dono bo'lur. (Alisher Navoiy) *Maqollar tuzilishiga ko'ra nimaga o'xshaydi? (She'rga) *Maqollarning oxirida qanday so'lar keladi? (ohangdosh so'zlar)

2. Uyga vazifa. Maqollarni yod olish. Ularning mazmuniga mos o'rganilgan asarlarni aniqlash. "Qari bilaganni – pari bilmas" maqolining ma'nosini ota-onangizdab so'rab bilib keling. Maqollar yod olish uchun qo'shimcha adabiyot: "Gulgina", kichkintoylar uchun. 1-jild.122-125-betlar; 252-256-betlar. 2-jild. 33-38-betlar; 273-279-betlar. Toshkent, "Yangi nashr" nashriyoti, 2010.

3. O'quvchilar to'plagan ballarni e'lon qilish.

Xulosa qilib aytganda, topishmoq, qo'shiq, maqollar o'quvchilarning aqliy o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ularda dono xalqi bilan faxrlanish va ularga munosib farzandlar bo'lishga undaydi.

IKKINCHI BOB BO'YICHA XULOSALAR

1.Ertak o'qish darslarida aqliy hujum, izohli o'qish, badiyy vositalarni izohlar, qayta hikoyalash "Eng yaxshi ertak aytuvchi" konkurslarini tashkil etish kabi ishlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

2. Masal janrida rollarga bo'lib oqish, sahnalashtirish, qissadan hissa yod oldirish o'quvchilar nutqini o'stiradi.

3. Xalq qo'shiqlarini o'rganishda qo'shiq kuylash va qo'shiq aytish musobaqasi, maqollarning mavzusini tarmoqlarda ifoda etish, "Maqolni davom ettir" o'yini, "Kim tez va to'g'ri joylashtiradi?" o'yini, topishmoq, qo'shiq, maqollar o'quvchilarning aqliy o'sishiga va nutqiga katta ta'sir ko'rsatadi.

4. Noan'anaviy tashkil qilingan xalq og'zaki ijodini o'qish darslarini o'quvchilarning asar matnini tushunib o'qish, qahramonlariga tavsif berish, qismlarga bo'lib tahlil qilish, reja tuzish ko'nikmalari rivojlantirish bilan bir qatorda asar

yuzasidan mustaqil fikrlash, o'zi ijodiy ertak yaratish malakalarini shakllantiradi va bular nutq o'zlashga katta yordam beradi.

5. Ertak o'qish darsida turidan foydalanish, goyasini ochishda maqollar toptirish, baxs-munozara elementlaridan foydalanish o'quvchilarning nutqini o'zlashadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodini o'rganish orqali o'quvchilar nutqini o'zlash bo'yicha tajriba-sinov ishlari

Tadqiqot mavzusi yuzasidan dastlab metodik adabiyotlar, boshlang'ich sinf davlat ta'lim standarti, ona tili dasturlari va maktab darsliklari o'rganildi. So'rovnoma savollari tuzilib, unda xalq og'zaki ijodini o'rganish darslarini tashkil etishning ahvoli aniqlandi. So'rovnoma Toshkent shahridagi 13 ta o'qituvchidan olindi.

Yuqorida ertak, masal, topishmoq, qo'shiq va maqollarni o'rganish bo'yicha tavsiya etilgan dars namunalari Toshkent shahri Shaxontahur tumanidagi 84-maktabda 34-maktabda tajriba sinov ishlari o'tkazildi. Tajribada 4- sinflardan jami 65 o'quvchi ishtirok etdi. Tajriba natijalari quyidagi ko'rsatkichda ifoda etdik:

Biz taklif etgan tavsiyalar, usullar asosida mashg'ulotlar tashkil qilindi. Bu bosqishda quyidagi tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi:

1. O'qituvchi va o'quvchilar faoliyati doimiy kuzatildi.
2. Dars ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida tashkil qilindi.

Maxsus tavsiyalar asosida o'tkazilgan pedagogik tajribaning natijalari quyida keltirilgan va tahlil qilingan. Pedagogik tajriba boshlanishidan oldin tanlab olingan sinov sinflardagi o'quvchilarning bilimi, o'qish ko'nikmalari, lug'at boyligi, bog'lanishli nutqi bilan oddiy sinflardagi o'quvchilarning bilimi, o'qish ko'nikmalari, lug'at boyligi, bog'lanishli nutqi o'rtasida katta farq yuzaga keldi. Bular og'zaki savol-javob, test nazoratlari, yozma ishlar natijalarida sezildi. Eksperiment sinflardagi o'quvchilarni xalq og'zaki ijodi janridagi asarlar matni ustida ishlash ko'nikmalari asosida olgan baholarini keltiramiz.

N	Maktab	Sinf	O`quvchilar soni	O`zlashtirish darajasi				Sifat o`zlashtirish
				«5»	«4»	«3»	«2»	
1	Toshkent shahridagi 84-maktab	4 a	33	6	14	13		60%
2	Toshkent shahridagi 34-maktab	4 a	32	7	12	13	-	59 %

O`quv yili boshidan o`qituvchiga har bir bolaning ertak aytish jarayonidagi tushunchalari, asar qahramonlarining harakatiga munosabati, badiiy nutqi sinchiklab o`rganish, biz tavsiya etgan dars namunalari yordamida darslarni tashkil etish topshirildi. Har bir bola bilan individual ishlash? Jamoa bo`lib ishlash amalga oshirildi.

Ertak janridagi asarlarni o`rganishda jamoalarga ertakning qaysi mavzuda ekanini aniqlash, uni qismlarga bo`lish, har bir qismning mazmunidan kelib chiqib reja tuzish, ertak tilida qo`llangan ko`chma ma`noli so`zlar, jonlantirish, o`xshatish, qahramonlarini tavsiflash ishlariga doir topshiriqlar berildi.

Olloyorning “Rangin qorlar” ertagini o`qishga o`quvchilar “Aqliy hujum metodida tayyorlandi:

Sinf o`quvchilari guruhlariga bo`linib o`tiradilar. O`qituvchi guruhlar bilimi teng bo`lishi uchun qizil, ko`k, oq, yashil, sariq rangli doirachalardan foydalanishi mumkin. Bir xil rangdagi doira egalari bir guruhni tashkil etishi aytiladi. Har bir guruh o`ziga nom tanlaydi. Buning uchun o`quvchilarni darsga hozirlash, qiziqtirish, harakatga keltirish, mavzuni mustaqil anglab yetishlari uchun topishmoqlardan foydalanish lozim.

– Topishmoqning javobini toping:

Elakdan un elandi

Supra unga belandi. (qor)

– O`ylang, bugun o`rganadigan yangi mavzu nima haqida ekan?

CHaqiruv bosqichida guruhlar taqdimoti o`tkazildi. Har bir guruh o`ziga – «*Qorparcha*», «*Ayozbobo*», «*Qorbobo*», «*Sumalak*», «*Qish*» deb nom qo`ydilar. Shu jarayonda ular fikrladilar. Bunda har bir guruh o`z nomining ma`nosini izohlaydi, nomini ifodalovchi rasm chizib ko`rsatishi ham mumkin. (Izohi yuqorida berildi)

Anglash bosqichida “Rangin qorlar” (Olloyor) ertagi (o`qituvchi qismlarga bo`lib kelgan bo`ladi)ning har bir qismi guruhdagi yaxshi o`qiydigan o`quvchilarga o`qitiladi. “Ifodali o`qish” musobaqasi uyushtiriladi. Eng yaxshi o`qigan o`quvchi aniqlanadi va rag`batlantiriladi. Bunda mustaqil ish metodidan foydalanildi.

SHundan so`ng guruhlariga asar matni ichda o`qishga topshiriladi. Guruh o`quvchilariga quyidagi topshiriq beriladi:

– Har bir guruh o`z qismini ichida o`qiydi. Uning mazmuniga va qahramonlariga doir savol-topshiriqlar tuzadi va konvertga solib uzatadi. Tuzilgan savollar izohlanib, rag`batlantirilib boriladi.

III. Fikrlash bosqichi. Bunda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. O`quvchilar o`zlari tuzgan savollarga javob beradilar:

- *Qadimda qorbo`ron qanday qorlar bilan o`ynalgan? Nima uchun?*
- *Bo`yoq bozori qancha yilda bir bo`lar ekan?*
- *Nega qorlar oq rangda yog`ar ekan?*
- *Bahoroy qaysi bo`yoqlarni xarid qilibdi?*
- *Kuz kelganda qozonlarda qaysi bo`yoqlar bor edi?*
- *Qish kelganda qozonda qaysi bo`yoq qolgan edi?*
- *Yoz uyqudan uyg`onib nimani o`ylab ketibdi?*
- *Yoz qaysi bo`yoqlarni olganini o`ylab toping.*
- *Kuz qaysi bo`yoqlarni o`chirib, uning o`rniga qaysi bo`yoqlarni surtib chiqdi?*
- *Qish o`z zahrini nimalarga sochadigan bo`lib qolibdi?*

2. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlanadi. Bularni barcha guruh bajaradi. Guruhning faol ishtirokiga qarab ball qo`yiladi.

3. O`qituvchi «Kumush qish» va o`qilgan asar yuzasidan tuzgan test topshiriqlarini guruhlariga tarqatadi.

4. Qish fasli bilan bog`liq maqol va topishmoqlar aytiladi:

Bahor, yoz, kuz qishlaydi, Qish paytida ishlaydi. (Pechka)

Qish yopingichingni qo`yma, Yoz o`zing bilasan. (Maqol)

5. O`qituvchi sardorlar uchun asar matni yuzasidan savol-topshiriqlar tuzib keladi.

Bu savol-topshiriqlar konvertlarga solinib, guruhlariga beriladi.

1 – guruh uchun.

– *Ayozbobo deraza oynalariga qanday qilib naqshlar chizadi?*

– *“Qiyomiga kelib” birikmasining ma`nosini izohlab bering* (ayni me`yoriga, maromiga yetgan holga kelgan).

2 – guruh uchun.

– *Falak, libos so`zini qaysi so`zlar bilan almashtirish mumkin?* (falak – osmon gumbazi, osmon, ko`k; libos – kiyim, ust-bosh)

– *Bahoroyning gullari nomini sanab bering.*

3 – guruh uchun.

– *“SHitob” so`zining ma`nosini izohlang* (harakatning bajarilishidagi tezlik)

– *Saraton qaysi payt ekanini ayting.*

4 – guruh uchun.

– *Bahor tabiatida yuz beradigan hodisalarni ayting.*

– *Za`far, zarg`aldoq ranglar qanday rang? Ranglar ichidan olib ko`rsating.* (zarg`aldoq – to`q sariq rang, za`far – sap-sariq, somon rang)

5 – guruh uchun.

– *Qish chillasi necha kun va unga qaysi vaqt kiradi?*

– *Ertakda badiiy vositalardan nima ko`proq qo`llanilgan?* (jonlantirish)

Darsni yakunlash va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

Tajriba-sinov ishlarida ertak o`rganish darslarida o`quvchilarning bilimini boyitish, o`qish ko`nikmalarini takomillashtirish, og`zaki nutqini o`stirish, shaxsini tarbiyalash, badiiy adabiyotga qiziqish uyg`otish muhim vazifalardan sanaladi.

O`quv yili oxirida tajriba-sinov ishlaridan so`ng o`quvchilarning belgi bildiruvchi so`zlarga doir leksik boyligi asosida o`zlashtirish sifati aniqlandi va ular jadvalda quyidagi ko`rinishga ega bo`ldi.

N	Maktablar	Sinfi	O`quvchilar soni	O`zlashtirish darajasi				Sifat o`zlashtirish
				"5"	"4"	"3"	"2"	
1	Toshkent shhridagi 84-maktab	4 "A"	33	13	14	6	-	81,8%
2	Toshkent shhridagi 34-maktab	4 "A"	32	14	13	5	-	84%

Xuddi shunday ishlar topishmoqlar va maqollar ustida ham olib borildi.

O`quv yili davomida o`qituvchining mashg`ulotlari kuzatildi. Kerakli maslahatlar berib borildi. O`quvchilarning ishtiroki, faoliyati o`rganib borildi. O`quvchilarning xalq og`zaki ijodiga doir asarlarni o`qishga qiziqishi ortishdan tashqari, udan to`g`ri xulosalar chiqarishga o`rgandi. O`quv yili oxirida xalq og`zaki ijodiga doir asarlarni o`qiydiganlar soni 79 taga yetdi.

Umumiy xulosa

1. Boshlang`ich ta`limda ta`lim samaradorligini oshirish, Davalat ta`lim standartlarining, bajarilishini ta`minlash, ta`limning sifatli ko`rsatkichini kafolatlashda boshlang`ich sinf o`qish darslarini tashkil etish metodikasini takomillashtirish hal qiluvchi omillardan bo`lib qolmoqda.

2. Boshlang`ich ta`limda o`rganiladigan xalq og`zaki ijodi katta ta`limiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

3. 1-4-sinf o`qish va nutq o`stirish darslarida Vatan, yil fasllari, tarixiy voqealar, maktab, kishilar mehnati, kattalar o`giti, qushlar va hayvonlar haqidagi mavzularni o`rganadi. Xalq og`zaki ijodi janridagi asarlarni o`rganishni ham o`quvchilar quyi sinflardan boshlaydi. 1-4-sinfda ertak, masal. Topishmoq, maqol, tez aytish va hokazolarni o`qish o`quvchilarning eng sevimli mashg`uloti. Bu mashg`ulotni

yanada qiziqarli uyushtirish darsda asar matni ustida ishlashga, qiziqarli ish turlaridan foydalanishga bog`liq.

4. Noan`anaviy tashkil qilingan xalq og`zaki ijodini o`qish darslarini o`quvchilarning asar matnini tushunib o`qish, qahramonlariga tavsif berish, qismlarga bo`lib tahlil qilish, reja tuzish ko`nikmalari rivojlantirish bilan bir qatorda asar yuzasidan mustaqil fikrlash, o`zi ijodiy ertak yaratish malakalarini shakllantiradi, nutqini o`stiradi.

5. Muammoli asosda tashkil etiladigan noan`anaviy o`qish darsi o`quvchining hayotda duch keladigan muammolarni aql bilan yechishga o`rgatadi, Mustaqil o`qish ko`nikmalarini shakllantiradi. Ertak va masalni o`qishda o`quvchini darsga qiziqtiradigan, e`tiborini asosiy fikrga qarata oladigan ish turlaridan: ertak va masal qahramonlari maketlari asosida ertak bilan tanishtirish, ro`llarga bo`lib o`qitish, ertakning badiiy tili ustida ishlash mashqlarini tashkil etish, ertak qahramonlarining hayotlari taqqoslovi tizimidan, testlardan foydalanish, rasm chizish, sahnalashtirish, ertak asosida tadbirlarda ishtirok etish kabilar o`quvchilar nutqini o`stirishning garovidir.

6. Ertak o`qish darsida turidan foydalanish, goyasini ochishda maqollar toptirish, baxs-munozara elementlaridan foydalanish o`quvchilar nutqini o`stiradi.

7. Xalq topishmoqlarini o`tishda “Topgan topaloq”, maqollarni o`tishda “Hikmatlar xazinasi”, “Maqollar mushoirasi”, tez aytishlarda “Kim tez va to`g`lri aytadi?”, qo`shiqlarni o`tishda “Olamni tutsin qo`shiq” mavzusi ostida qo`shiq kuylash kabi ish turlaridan foydalanish o`quvchi nutqini o`stiruvchi ish turlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I. A. Karimov, O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li, "O'zbekiston" nashr., 1992.
2. I. A. Karimov Milliy davlatchilik istiqlol mavkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida, 1999
3. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" .T.,1998.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni T,1997
5. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi "SHarq"., 1999 7- maxsus son.
6. Qosimova K., " Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" "O'qituvchi", 1985
7. Ashrapova T. va Odilova M., Ona tili o'qitish metodikasi, T., 1986
8. G'afforova T. Va boshq, "O'qish kitobi" , 1- sinlar uchun darslik, "SHarq", 2007
9. Abdullaeva Q va boshq "O'qish kitobi" 2-sinlar uchun darslik "Yangi asr avlodi", T., 2005
10. Umarova M., va boshq "O'qish kitobi" 3-sinlar uchun darslik, Yangi asr avlodi 2003.
11. Matchonov S., va boshq "O'qish kitobi" 4-sinlar uchun darslik uchun darslik, "O'qituvchi", 2007
12. G'afforova T., va 1-sinfda o'qish darslari T., "SHarq" 2003.
13. Abdullaeva Q., va 2-sinfda o'qish darslari "Ijod dunyosi" T., 2004
14. Umarova M., 3-sinfda o'qish darslari T. "O'qituvchi" 2004
15. Matchanov S., 4-sinfda o'qish darslari T., "O'qituvchi" 2003
16. Mirqosimova. M.. "O'qituvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish"; T., 2006

17. Homidiy Q., Abdullaeva SH, Ibrohimova S., “Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati” ,T.1967.

18. Abduvalidov Ye. Yangi pedagogik texnologiya muammolari. \ Til va adabiyot ta`limi, 2001, №1.

19.Matchonov S. Umumta`lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped.fan.dok.diss... –T.: 1998. -300 bet.

20. Sarimsoqov B., Hotamov N. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha qisqacha izohli lug`ati. –T.: O`qituvchi. 1982. -36 bet.